

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.01.05. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

RAXIMDJANOVA DILNAVOZ SUNNAT QIZI

**KLASSIK YUNON FALSAFASI VA SHARQ PERIPATETIZMIDA
ERKINLIK FENOMENI KOMPARATIVISTIKASI**

09.00.03 – Falsafa tarixi

**Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философских наук (DSc)

The content of the dissertation abstract of the Doctor of philosophical sciences (DSc)

Raximdjanova Dilnavoz Sunnat qizi

Klassik yunon falsafasi va sharq peripatetizmida erkinlik fenomeni komparativistikasi.....3

Рахимджанова Дилнавоз Суннат кизи

Компаративистика феномена свободы в классической греческой философии и восточном перипатетизме.....33

Rakhimdjanova Dilnavoz Sunnat kizi

The comparison of the phenomenon of freedom in classical greek philosophy and oriental peripatetism.....64

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works69

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.01.05. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

RAXIMDJANOVA DILNAVOZ SUNNAT QIZI

**KLASSIK YUNON FALSAFASI VA SHARQ PERIPATETIZMIDA
ERKINLIK FENOMENI KOMPARATIVISTIKASI**

09.00.03 – Falsafa tarixi

**Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Fal1411 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy Kengash veb-sahifasida (ik-falsafa.nuu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Ramatov Jumaniyoz Sultonovich
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

To‘rayev Baxtiyor Omonovich
falsafa fanlari doktori, professor

Navro‘zova Gulchehra Nigmatovna
falsafa fanlari doktori, professor

Amriddinova Dilrabo Tursunovna
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.F.01.05. raqamli Ilmiy Kengashning 2025-yil “4”-oktyabr soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, Yoshlar markazi binosi. Tel.: (99871) 227-12-24; faks: (99871) 246-53-21, (99871) 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (152 raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. O‘zMU Ma‘muriy binosi, 2-qavat, 4-xona. Tel.: (99871) 236-46-55; faks: (99871) 246-02-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “29”-sentyabrda tarqatildi
(2025-yil “29”-sentyabrdagi 18-raqamli reyestr bayonnomasi).

I.S.Saifnazarov

ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

G.M.Shadimetova

ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

O‘.G‘.Tilavov

ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori (DSc),
professor

KIRISH (Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda ro‘y berayotgan barcha o‘zgarish, rivojlanish erkinlik mavjud bo‘lgan zamon va makon “kontinuumi”da amalga oshmoqda. Tadqiqotchilarning erkin tafakkuri, olimlarning erkin ixtirolari, yoshlarning innovatsion g‘oyalarni erkin ifoda etishi va ilgari surishi dunyo qiyofasining tubdan o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda. Erkinlik o‘tmish nuqtayi nazaridan o‘zgaruvchan va turli variantli fenomen hisoblanadi. Jamiyat har bir yangi bosqichida madaniyat, qadriyatlar, fan-texnologiya va normalarning rivojlanishiga qarab, erkinlikni yangicha talqin etish zaruriyati kelib chiqaveradi. Erkinlik atamasi shaklan o‘zgarishi bilan bir qatorda, uning shaxs tomonidan qabul qilinishi, dunyoqarashdagi paradigmalardagi aksi ham tubdan yangilanadi. Muayyan erkinlik ijtimoiy normalarni, o‘z-o‘zini anglash va muloqotga kirishishni kodlashtirish vositasi hisoblanadi. Shunday ekan, “erkinlik” tushunchasi shakllanishining konseptual asoslari va uning tarixiy rivojlanishini o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda axborotlashgan jamiyatning turli sohalarida shakllanayotgan erkinlikni asoslash zaruriyatini tug‘diradi. Xususan, huquq, axloq, ijtimoiy, siyosiy sohalarida ham u o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Buning misolida erkinlik muammosi hozirgi zamonada faylasuflar tomonidan raqamli texnologiyalar (internet, sun‘iy intellekt, ijtimoiy tarmoqlar) shaxsiy hayotga chuqur kirib kelishi erkin tanlov va shaxsiy erkinlikka tahdid solishi, ayrim jamiyatlarda kambag‘allik, iqtisodiy tengsizlik sharoitida haqiqiy erkinlik mavjudligi, har kim o‘zicha erkin bo‘lsa, jamiyatda axloqiy tartib saqlanishi mumkinmi yoki yo‘qligi, turli madaniyat va dinlarning erkinlikni turlicha talqin qilishi global ziddiyatlarga sabab bo‘lishi kabi javob topishi zaruriy bo‘lgan masalarga katta ahamiyat berilayotganini keltirish mumkin. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanayotgan sharoitda inson erkinlikni yangicha talqinda tushunadi. Erkinlikni sohaviy tadqiq etish faqatgina erkinlik fenomenini huquqiy madaniyat kategoriyasi sifatida kengaytirish bilan chegaralanmaydi. Uning huquqiy va axloqiy aspektlari bilan birgalikda faoliyat yuritishi kabi o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishiga ham imkon beradi. Ushbu muammoning falsafiy aspektlari keyingi davr mutafakkirlari, masalan, yangi zamon faylasuflari, ekzistensialistlari tomonidan o‘rganilgan. Hozirgi zamon izlanuvchilari esa Platonning dialoglari, “Davlat”, “Qonunlar”, Aristotelning “Etika”, Farobiyning “Fozil odamlar shahri”, Ibn Xaldunning “Muqaddima” asarlarini tadqiq etmoqdalar. U yerdagi erkinlik haqidagi qarashlarni hozirgi davr jamiyatini erkinlikka bo‘lgan munosabati bilan taqqoslashni taqozo qiladi.

O‘zbekistonda erkinlik masalasi barcha soha va masalalarda alohida o‘ringa ega. Xususan, iqtisodiyotda erkin iqtisodiy munosabatlar, fuqarolik jamiyatini qurishda erkin va farovon zamin, ijtimoiy-huquqiy, diniy masalalarda erkin shaxs, OAV da so‘z erkinligi ko‘rinishlarida o‘zini bu fenomen namoyon etadi. “Axborot va matbuot erkinligi, fuqarolarning o‘z xohish-irodasini erkin bildirishi, davlat idoralari faoliyatining ochiqligi va oshkoraligi – Yangi O‘zbekistonning sifat

ko'rsatkichlaridan biriga aylandi"¹. Ushbu belgilangan yo'lni Prezident SH.Mirziyoyev davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida ta'kidlab o'tgan. Bunda erkinlik tushunchasining amaliy ahamiyati yaqqol namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-dekabrda O'RQ-651-son "Fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklarini muhofaza qilishga qaratilgan qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyundagi PF-89-son "Tezkor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida", 2019-yil 8-oktyabrda PQ-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, 2022-yil 20-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². Hozirgi paytda antik davrdagi klassik yunon faylasuflari va sharq peripatetizm vakillarining ishlari, shuningdek, falsafadagi erkinlik fenomenini o'rganishga qaratilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, University of Sorbonne (Fransiya), Carnegie Mellon University & Air Force Research Laboratory, University of Minnesota (AQSh), University of Amsterdam (Niderlandiya), American University of Beirut (Livan), Uludağ Üniversitesi (Turkiya), Rossiya fanlar akademiyasi sharqshunoslik instituti, A.F.Mojayskiy nomidagi harbiy-fazoviy akademiya, Janubiy federal universitet (Rossiya), S.Toraygirov nomidagi Palodar davlat universiteti (Qozog'iston),

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси [Матн]. – Тошкент: О'zbekiston, 2021. – 464 б.

² Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar sharhi: <https://www.pantheonsorbonne.fr/page-perso/jbbrenet>; <https://typeset.io/authors/matthew-m-walsh-1a9azwzsg?ysclid=m5p8i1dzee449118029>; <https://experts.umn.edu/en/persons/rosalie-a-kane/projects>; <https://www.uva.nl/en/profile/b/e/j.m.c.vandenbent/j.m.c.vandenbent.html?ysclid=m5p96qg5bb745003048&cb>; https://www.aub.edu.lb/articles/Pages/AUB_Mourns_Majid_Fakhry.aspx; <http://suleymanuludag.com/index.html>; <https://www.ivran.ru/persons/EfremovaNatalijaValer%27evna>; <https://vka.spb.ru/>; [https://sfedu.ru/www/stat_pages22.show?p=UNI/s1/D¶ms=\(p_per_id=%3E914\)](https://sfedu.ru/www/stat_pages22.show?p=UNI/s1/D¶ms=(p_per_id=%3E914)); <https://tou.edu.kz/ru>; <https://nuu.uz/chair/falsafa-va-mantiq>; <https://tsuos.uz/sharq-falsafasi-va-germenevtika-kafedrasi> va boshqa manbalar asosida amalga oshirilgan.

O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti (O‘zbekiston)da olib borilmoqda.

Jahonda klassik yunon faylasuflari va sharq peripatetizm vakillarining merosini hamda erkinlik fenomenini o‘rganishga oid tadqiqotlar natijasida qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: Ibn Rushdning teologik va gnoseologik g‘oyasi ochib berilgan (University of Sorbonne, Fransiya), Aristotelning erkinlik konsepsiyasi haqida fikr yuritilgan, iroda erkinligi borasidagi mulohazalar asoslangan (Carnegie Mellon University & Air Force Research Laboratory, University of Minnesota, AQSh), Ibn Xaldunning “asabiyya” tushunchasi ochib berilgan (University of Amsterdam, Niderlandiya), arab-musulmon falsafasining yirik vakillarining qarashlari yoritib berilgan (American University of Beirut, Livan), Ibn Xaldunning hayoti va ijodi falsafasiga oid tadqiqotlar amalga oshirilgan (Uludağ Üniversitesi, Turkiya), sharq peripatetizmi falfasafiy g‘oyalarining shakllanishi, bundan tashqari, antik davrda erkinlikning ko‘rinishi va bu masalani yechimiga oid qarashlar yoritilgan (Rossiya fanlar akademiyasi sharqshunoslik instituti, A.F.Mojayskiy nomidagi harbiy-fazoviy akademiya, Janubiy federal universitet, Rossiya), Farobiyning falsafasida axloqni ontologik uyg‘unligi ochib berilgan (S.Toraygirov nomidagi Pavlodar davlat universiteti, Qozog‘iston), sharq peripatetiklarining ijtimoiy-axloqiy ta’limotlari asoslangan (O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, O‘zbekiston).

Dunyoda klassik yunon falsafasi va sharq peripatetizmining ilmiy-madaniy hamda falsafiy qarashlari bo‘yicha, shu bilan birga, erkinlik masalasi bo‘yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda: falsafa tarixida antik davr va o‘rta asr sharq falsafasining konseptual-metodologik asoslari; klassik yunon falsafasi va sharq peripatetizmi vakillari falsafiy qarashlaridagi divergenziya, komparativistikani tadqiq etish; ajdodlar merosida tarixiy vorisiylikni o‘rganish; erkinlikni buzg‘unchilikka sababchi bo‘luvchi jihatlarni aniqlash va ularni yaratuvchilik hislati bilan almashtirish yo‘llarini asoslash.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dissertatsiyada yunon falsafasining vakillari Sokrat, Platon va Aristotellarning erkinlik to‘g‘risidagi qarashlari hamda ularni meros qilib olgan va ularga o‘zlarining yangicha yondashuvlari bilan katta hissa qo‘shgan sharq peripatetizmi vakillarining erkinlik tushunchasiga oid talqinlari har tomonlama chuqur hamda xolis o‘rganildi.

Jumladan, antik davr yunon klassik faylasuflari ta’limotlarida muhim joy olgan erkinlik tushunchasini o‘rgangan tadqiqotchilar safiga I.Berlin³, M.Polets (M.Polenz)⁴, L.M.Gluskina⁵, O.V.Gutorovich⁶, F.X.Kessidi⁷, V.S.Nersesyans⁸,

³ Берлин И. Философия свободы. Европа / пред. А.Эткинда. – М.: Новое литературное образование, 2001. – 448 с.

⁴ Polenz M. Freedom in Greek Life and Thought. The History of an Ideal. – Dordrecht, 1966. – 220 p.

⁵ Глускина Л.М. Проблемы кризиса полиса. Античная Греция: проблемы развития полиса. – М., 1983. – 29 с.

⁶ Гуторович О.В. Проблема свободы и ее решение в античной философии // Исторические, философские, политические и юридические науки, культурология и искусствоведение. Вопросы теории и практики. ISSN 1997-292X. – № 7 (57): в 2-х ч. Ч. I. – Грамота, 2015.

⁷ Кессиди Ф.Х. Сократ. – М.: Мысль, 1976. – 198 с.

⁸ Нерсесянц В.С. Сократ. – М.: ИНФРА-М-НОРМА, 1996. – 312 с.

M.Fred (M.Frede)⁹, A.A.Stolyarov¹⁰, V.S.Solovyev¹¹, R.S.Brambo¹², L.I.Shestov¹³, G.V.Drach¹⁴, U.Steynvors (U.Steinvorh)¹⁵, A.N.Xarlamov¹⁶, R.M.Chizolm (R.M.Chisholm)¹⁷, R.Keyn (R.Kane)¹⁸, G.Uotson (G.Watson)¹⁹, M.M.Uolsh (M.M.Walsh)²⁰ kabilar kiradi.

Bugungi kunda sharq peripatetizmida erkinlik masalasiga doir turli tadqiqotlar olib borganlarni uchratish ozroq qiyinchilik tug'diradi, biroq ularning umumiy falsafasini tadqiq etganlar bir munchani tashkil etadi. Bular jumlasiga E.Renan²¹, A.X.Kasimjanov²², Fr.Dieteritsi²³, A.D.Azerbayev²⁴, N.V.Yefremova²⁵, A.V.Sagadeyev²⁶, S.N.Grigoryan²⁷, A.A.Ignatenko²⁸, S.M.Batseva²⁹, M.Faxriy³⁰, J.-B.Brenet³¹, A.V.Smirnov³², A.Badaviy³³, U.Suleyman³⁴, J.v.d.Bent³⁵, F.Malaguti³⁶ va boshqa bir qator mualliflarning fundamental tarixiy-falsafiy asarlarini kiritish mumkin.

⁹ Frede M. A Free Will. Origins of the Notion in Ancient Thought. – London, 2011. – 224 p.

¹⁰ Столярков А.А. Свобода воли как проблема европейского морального сознания. – М., 1999. – 208 с.

¹¹ Соловьев В.С. Соч.: В 2 т. – М., 1990. Т. 1. – 892 с.

¹² Брамбо Р.С. Философы древней Греции. – М.: Центрполиграф, 2002. – 352 с.

¹³ Шестов Л.И. Соч.: В 2 т. – М., 1993. Т. 1. – 668 с.

¹⁴ Драч Г.В. Рождение античной философии и начало антропологической проблематики. – М., 2003. – 318 с.

¹⁵ Steinvorh U. Freiheitstheorien in der Philosophie der Neuzeit. – Darmstadt, 1987. – 302 p.

¹⁶ Харламов А.Н. Особенности формирования категорий свобода воли, вина и ответственность в эпоху Античности // Вестник: Воронежского государственного университета. Серия Лингвистика и межкультурная коммуникация, 2007. – С. 98-102.

¹⁷ Chisholm R.M. Human Freedom and the Self // Free Will / Ed. G.Watson. – Oxford: Oxford University Press, 1982. – 18 p.

¹⁸ Kane R.A Contemporary Introduction to Free Will. – Oxford: Oxford University Press, 2005. – P. 141-189.

¹⁹ Watson G. Responsibility and the Limits of Evil: Variations on a Strawsonian Theme // Responsibility, Character and the Emotions / Ed. F.D.Schoeman. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – P. 256-286.

²⁰ Walsh M.M. Aristotle's Conception of Freedom // Journal of the History of Philosophy, 1997. October. Volume 35. Issue 4. – P. 495-507.

²¹ Ренан Э. Аверроэс и аверроизм. Собрание сочинений, т. V III. – Киев, 1902.

²² Касымжанов А.Х. Абу-Наср аль-Фараби. – М.: Мысль, 1982. – 198 с.

²³ Dieterici Fr. Alfarabi's philosophische Abhandlungen. – Leiden, 1892.

²⁴ Азербайев А.Д. Свобода воли и выбора в наследии Августина Блаженного и философии Аль-Фараби // WORLD SCIENCE, 2016. July. ISSN 2413-1032. – № 7 (11). Vol. 3.

²⁵ Ефремова Н.В. Арабо-мусульманская философия // Работа выполнена в рамках Программы фундаментальных исследований Президиума РАН Традиции и инновации в истории и культуре (Тема номер 3. Традиция, обычай и ритуал в истории и культуре). – С. 176-199.

²⁶ Сагадеев А.В. Ибн-Рушд (Аверроэс). – М.: Мысль, 1973. – 207 с.

²⁷ Григорян С.Н., Сагадеев А.В. Избранные произведения мыслителей стран ближнего и среднего востока IX-XIV вв. – М.: Соцэкгиз, 1961.

²⁸ Игнатенко А.А. Ибн-Хальдун. – М.: Мысль, 1930. – 160 с.

²⁹ Бацева С.М. Историка-социологический трактат Ибн Халдуна "Мукаддима". – М., 1978.

³⁰ Fakhry M. Averroes. His life, Works and influence. – England, Oxford: Oneworld publication, 2001. – 188 p.

³¹ Brenet J.-B. Averroès l'inquiétant. ISBN 978-2-251-44533-5, 2-251-44533-1. – Paris: Les Belles lettres, 2015. – 144 p.

³² Смирнов А.В. Ибн Рушд // Православная энциклопедия. Т. XX: Зверин в честь Покрова Пресвятой Богородицы женский монастырь – Иверия. – М., 2009. – 752 с.

³³ Badaviy A. Muellefātu Ibn Haldun. – Tunis, 1979. – S. 41-55.

³⁴ Süleyman U. İbn Haldun. Hayatı. Eserleri. Fikirleri. – Ankara: Harf Eğitim Yayıncılığı, 2022.

³⁵ Bent J.v.d. "None of the Kings on Earth is Their Equal in 'aşabiyya'" The Mongols in Ibn Khaldūn's Works // Al-Masāq, 2016. 3 May. – № 28 (2). DOI:10.1080/09503110.2016.1198535. ISSN 0950-3110. – P. 71-186.

³⁶ Malaguti Fr. Jewish Muslim Relations. Philosophical Perspectives on the Relationship Between Religion and Science: Averroes, Maimonides, Thomas Aquinas and Galileo, 2019. August. DOI:10.1007/978-3-658-26275-4_7. – P. 101-117.

O‘zbekistonda mazkur mavzu bo‘yicha olib borilgan yirik tadqiqotlar mavjud emas. Mamlakatimizda nashr etilgan o‘quv qo‘llanma, darslik va kitoblarda erkinlik masalasiga ma’lum bir miqdorda to‘xtalib o‘tilgan. Bularga R.R.Karimov³⁷, S.A.Yo‘ldoshev³⁸, M.O.Usmonov³⁹, M.Sh.Sharipov⁴⁰, T.Alimardonov⁴¹ kabi mualliflarning ishlarini keltirish mumkin. Lekin ma’lum bir faylasufni ijodini yoki aynan erkinlik fenomenini umumiy o‘rganish jarayonida bu masalaga oz miqdorda to‘xtalib o‘tgan tadqiqotchilar mavjud. Bulardan, I.M.Mo‘minov⁴², M.M.Xayrullayev⁴³, X.A.Alikulov⁴⁴, Y.Jumaboyev⁴⁵, jumladan, hozir kunda tadqiqot ishlarini olib borgan va ayni paytda olib borayotgan dissertantlardan J.B.Suleymanov⁴⁶, R.I.Ikramova⁴⁷, T.Boygaziyev⁴⁸, J.K.Yusubov⁴⁹, B.Zokir⁵⁰, N.A.Tursinkulov⁵¹ kabilar.

Tadqiqot ishlari natijalari o‘rganganilganda zamonaviy tadqiqotchilar antik davri va o‘rta asr sharq peripatetizmi falsafiy tizimining barcha bosqichlaridagi erkinlik bilan bog‘liq savollarga bir-biriga o‘xshamagan, ba‘zan ziddiyatli, xullas, turli javoblar berganlarini ko‘rish mumkin. O‘sha davrdagi fikrlarda qarama-qarshilik mavjudligi va har bir tadqiqotchi o‘z idealidan kelib chiqib, izoh berishi ham sabab bo‘lgan. Bu yo‘nalishdagi say-harakatlarda erkinlik to‘g‘risidagi savolga berilayotgan javob bir ma‘noli ko‘rinish kasb etmaydi. Garchi barcha darajadagi “erkinlik” mavjudligi ta’kidlanayotgan bo‘lsada, falsafaning o‘zida muayyan darajada “erkin” deb faraz qiladigan barcha narsaga mos keladigan “erkinlik”ning yagona tushunchasi haligacha taklif etilgani yo‘q.

Shunday qilib, antik davr hamda sharq peripatetizmining erkinlik fenomenini o‘rganish bo‘yicha ishlar tugallanmagan hamda ushbu dissertatsiyaning mavzusini tashkil etayotgan muammo falsafa tarixchilari tomonidan hali to‘la ishlanmagan, degan xulosaga kelish mumkin.

³⁷ Каримов Р.Р. Очерки по древнегреческой философии. Монография. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2021. – 132 с.

³⁸ Йўлдошев С.А., Усмонов М.О., Каримов Р.Р. Қадимги ва ўрта аср Ғарбий Европа фалсафаси. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Шарқ, 2003. – 208 б.

³⁹ O‘sha manba.

⁴⁰ Sharipov M.Sh. Falsafa tarixi. Antik davr falsafasi. Darslik. – Toshkent: Go To Print, 2020. – 272 b.

⁴¹ Алимардонов Т. Эркинлик руҳи. – Тошкент: Нишон-Ношир, 2014. – 250 б.

⁴² Mo‘minov I.M. O‘zbekistondagi tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixidan lavhalar. – Toshkent, 1999.

⁴³ Хайруллаев М.М. Фараби. Эпоха и учение. – Ташкент, 1975.

⁴⁴ Аликулов Х.А. Этические воззрения мыслителей Средней Азии и Хорасана. – Ташкент, 1992.

⁴⁵ Jumaboyev Y. O‘zbekistonda falsafa va axloqiy fikrlar taraqqiyoti tarixidan. – Toshkent, 1997.

⁴⁶ Сулаймонов Ж.Б. Абдурахмон ибн Халдуннинг ижтимоий-фалсафий концепциясида “асабийя” категорияси таҳлили // Academic research in educational sciences. – № 3 (6). – Тошкент, 2022. – Б. 719-726.

⁴⁷ Ikramova R.I. Ibn Rushdning “Kitab fasl al-maqāl va taqrir ma bayna ash-shari ‘ah va al-hikmah min al-ittisāl” asaridagi mulohazalar tahlili // Oriental enaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – № 1 (4). – Toshkent, 2021. – В. 1537-1542.

⁴⁸ Бойгазиев Т. Форобий фалсафасида билимларнинг турларга ажратилиши // Фалсафа ва ҳуқук. – № 2. – Тошкент, 2023. – Б. 150-154.

⁴⁹ Yusubov J.K. Abu Nasr Forobiy ma’naviy-axloqiy ta’limotining sharq va g‘arb madaniy sivilizatsiyasiga ta’siri. – Toshkent: O‘zMU, 2024. – 226 b.

⁵⁰ Zokir B. Erkinlik g‘oyasi takomili yoxud demokratiya tarixiga bir nazar // Tafakkur jurnali. – № 2. – Toshkent, 2008. – В. 18.

⁵¹ Tursinkulov N.A. Erkinlik g‘oyasining falsafiy asoslari // Academic research in educational sciences. Volume 2. Issue 6. – Toshkent, 2021. – В. 831-838.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat transport universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Globallashuv sharoitida tinchlik va barqarorlikka tahdid soluvchi g'oyaviy, mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi kurashishning zamonaviy mexanizm hamda texnologiyalarini yaratish” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi antik davr klassik yunon falsafasi va sharq peripatetizmida erkinlik fenomenining komparativistikasini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

antik klassik yunon falsafasi va o'rta asr sharq peripatetizmida erkinlik kategoriyasini o'rganishning metodologik asoslarini yoritish, klassik yunon falsafasi va sharq peripatetizmida erkinlik fenomenini tadqiq etishda komparativistik tahlilning nazariy-metodologik asoslarini ochib berish hamda antik yunon klassik falsafasi va sharq peripatetizmida erkinlik fenomenining hozirgi zamon falsafasidagi qarashlar bilan qiyoslash;

Sokrat va uning maktablari falsafasida erkinlik talqinining divergensiyasini yoritib berish, erkinlik atamasining Platon ta'limotidagi dialektikasini namoyon etish va Aristotel qarashlarida erkinlik fenomeni determinizmini talqin qilish;

Abu Nasr Farobiy asarlarida “erkinlik” tushunchasini tadqiq etish hamda Ibn Rushdning qarashlari umumiy falsafiy tizimida erkinlik masalasining o'rnini ko'rsatish;

Ibn Xaldun qarashlarida erkinlik muammosining yechimini berish va Sokrat hamda Ibn Xaldun falsafiy qarashlarida “erkinlik” tushunchasining analizini namoyon etish;

Platon va Farobiyning erkinlik atamasiga munosabatini ko'rsatib berish, Aristotel bilan Ibn Rushd falsafiy dunyoqarashida erkinlik muammosining qo'yilishini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning obyektini sifatida klassik yunon falsafasi va sharq peripatetizmi olingan.

Tadqiqotning predmetini klassik yunon falsafasi va sharq peripatetizmida erkinlik fenomenining qiyosiy tahlili tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. O'zaro aloqadorlik, obyektivlik, tarixiylik va mantiqiylik tamoyillari, muammoviy yondashuv, komparativistik tahlil va sintez, tizimli yondashuv, vorisiylik, divergensiya, teleologik, deterministik, dialektik yondashuv, sotsiologik so'rovnoma, sotsiologik suhbat kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

erkinlik fenomeni hamda fuqarolar hayotidagi erkinlik axloqining “qonun”, “jamiyat”, “fuqaro”, “axloq”, “mulk” bilan bog'liq mohiyati Sokrat, Platon, Aristotel kabi klassik yunon falsafasi hamda Farobiy, Ibn Rushd, Ibn Xaldun kabi sharq peripatetizmi vakillarining mas'uliyat, ideal davlat, o'zboshimchalik, javobgarlik, taqdir, erkin tanlov, boshqaruv, asabiyya, mulk kabi falsafiy qarashlari asosida ochib berilgan;

Platonning “Davlat” hamda Farobiyning “Fozil odamlar shahri” asaridagi me'yordan ortiq erkinlikni davlatni boshqaruvchi yakka insonlar qo'lga tutqazish

tiraniya tuzumiga olib kelishi va jamiyatni tobelashtirishi kabi nuqtayi nazar bilan hozirgi kunda hokimiyatdagi vakolatli shaxslarga qonun chegarasidan chetga chiquvchi erkinlikni berish zamonaviy sotsiumda fuqarolarning huquq hamda erkinliklarining buzilishiga sabab bo'lishi va uning fuqarolik jamiyati tamoyillariga zidligi borasidagi yondashuvning uyg'unligi falsafiy asoslangan;

davlat siyosiy boshqaruvida shaxs, jamiyat manfaatlarini ta'minlashdagi ijtimoiy-falsafiy qarashlar vositasida xalq bilan muloqot, adolat, tenghuquqlik va gumanistik tamoyillarni qaror toptirish zaruriyati jamiyat bir butunligini ta'minlashda namoyon bo'lishi erkinlik prizmasi orqali argumentlangan;

klassik yunon falsafasi mutafakkirlarining qarashlarida erkinlik fenomenining evolyutsion transformatsiyasi dialektik jihatdan ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy, axloqiy, falsafiy, ruhiy erkinlikdagi plyuralistik g'oyalarning zamonaviy mohiyatiga adekvat ekanligi dalillangan;

antik davr klassik yunon falsafasi bilan sharq peripatetizm yo'nalishi vakillarining qarashlarida erkinlik fenomeniga munosabatning komparativistikasi orqali g'oyalar divergensiyasi sodir bo'lgani oqibatida erkinlikning zamonaviy masalalariga deterministik jihatdan ta'sir etganligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

antik davr falsafasi va sharq peripatetizmidagi erkinlik fenomenini o'rganish orqali hozirgi zamon jamiyat hayotidagi inson ma'naviy-ruhiy olami, istak va intilishlariga oid g'oyalardan unumli foydalanish, davlat tizimidagi huquqiy normalardan inson erkiga oid qismlari orqali shaxsning qadr-qimmatini oshirish mexanizmlari ishlab chiqilgan;

erkinlik fenomenini ochib berish orqali hozirgi zamon yoshlarining bu tushunchani mohiyatiga yetib bormagan holda buzuq va vayronkor harakatlarga qo'shib qolishlari hamda o'zimizning asrlar davomida milliy mintalitet va an'analarimizning yo'qolib ketishini oldini olish chora tadbirlari yoritilgan;

“erkinlik” tushunchasini ochib berish asosida ezgu istaklarni uyg'otish, yaratuvchanlik qobiliyatini shakllantirish, axloqiy tanazzulning oldini olish, jamiyatdagi begonalashuvni, yolg'izlikni bartaraf etish uchun faol ijodkorlik ko'nikmasini targ'ib qilish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil qilishga oid nazariy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijasining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ilgari surilgan g'oyalar, ilmiy xulosalaridan falsafa tarixi, axloq masalalari va yuridik sohalarga oid ilmiy tadqiqotlarda foydalanish mumkinligi bilan asoslanadi. Ilmiy xulosalardan falsafa tarixi, antropologiya, psixologiya, huquqshunoslik va sotsiologiya fanlari bo'yicha darslik, o'quv qo'llanma, uslubiy tavsiyalar tayyorlashda, gumanitar fanlar bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalarida ma'ruzalar tayyorlashda foydalanish

mumkin. Inson erkinligi tahlili haqidagi nazariy-falsafiy g'oyalar, tavsiyalar falsafa, axloqshunoslik va psixologiya kabi ijtimoiy fanlar tizimini yangicha yondashuvlar bilan boyitadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyadagi taklif hamda xulosalardan mahallalar, nodavlat notijorat tashkilotlarining amaliy faoliyatlarida foydalanish hamda ilmiy ishdagi xulosalarida keltirilgan erkinlik g'oyasining asl mohiyatini aholining turli qatlamlari ongiga singdirish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Klassik yunon falsafasi va sharq peripatetizmida erkinlik fenomeni komparativistikasi bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

erkinlik fenomeni hamda fuqarolar hayotidagi erkinlik axloqining “qonun”, “jamiyat”, “fuqaro”, “axloq”, “mulk” bilan bog'liq mohiyati Sokrat, Platon, Aristotel kabi klassik yunon falsafasi hamda Farobiy, Ibn Rushd, Ibn Xaldun kabi sharq peripatetizmi vakillarining mas'uliyat, ideal davlat, o'zboshimchalik, javobgarlik, taqdir, erkin tanlov, boshqaruv, asabiyya, mulk kabi falsafiy qarashlari asosida ochib berilishiga oid xulosalardan O'zbekiston Yoshlar ittifoqi markaziy kengashi hamda O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining yoshlar hayoti, erkinliklarini, intilishlarini aniqlashga yo'naltirilgan ijtimoiy-ma'naviy, huquqiy, sohalarga oid turkum tadbirlarni o'tkazishda foydalanilgan (O'zbekiston Yoshlar ittifoqi markaziy kengashining 2025-yil 16-yanvardagi 04-13/54-son hamda O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2025-yil 28-yanvardagi 4-10-21-436-son ma'lumotnomalari). Natijalar yoshlar ma'naviy salohiyatini yuksaltirish, ularda kuchli fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, yoshlar tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'rnini yanada mustahkamlash, ularning ilmiy va innovatsion salohiyatini boyitish kabi vazifalarni amalga oshirish imkoniyatlarini yanada kengaytirishga xizmat qilgan;

Platonning “Davlat” hamda Farobiyning “Fozil odamlar shahri” asaridagi meyordan ortiq erkinlikni davlatni boshqaruvchi yakka insonlar qo'liga tutqazish tiraniya tuzumiga olib kelishi va jamiyatni tobelashtirishi kabi nuqtayi nazar bilan hozirgi kunda hokimiyatdagi vakolatli shaxslarga qonun chegarasidan chetga chiquvchi erkinlikni berish zamonaviy sotsiumda fuqarolarning huquq hamda erkinliklarining buzilishiga sabab bo'lishi va uning fuqarolik jamiyati tamoyillariga zidligi borasidagi yondashuvning uyg'unligi falsafiy asoslanishiga oid xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazining o'quv-uslubiy ishlarida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi 2025-yil 27-yanvardagi 02/42-son dalolatnomasi). Natijada yoshlarning ijodiy va kasbiy faoliyatini ta'minlashga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilishga, buzg'unchi g'oyalarga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirishga, ruhiy va ma'naviy olami boyishiga erishilgan;

davlat siyosiy boshqaruvida shaxs, jamiyat manfaatlarini ta'minlashdagi ijtimoiy-falsafiy qarashlar vositasida xalq bilan muloqot, adolat, tenghuquqlik va gumanistik tamoyillarni qaror toptirish zaruriyati jamiyat bir butunligini ta'minlashda namoyon bo'lishi erkinlik prizmasi orqali argumentlanganligiga oid

xulosalardan “Alfaraganus University” nodavlat oliy ta’lim tashkiloti talabalari uchun “Sharq va G’arb falsafasi tarixi” va “Sharq va G’arb falsafasidagi antropologik muammolar” nomli hamda Tashkent International university of Education talabalari uchun “Bilish nazariyalari” nomli darsliklarni tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagi 391-sonli buyrug‘i asosida № 316373, 2024-yil 4-martdagi 55-sonli buyrug‘i asosida № 358733 va 2024-yil 29-maydagi 194-sonli buyrug‘i asosida № 194-066-sonli guvohnomalari). Natijalar davlat boshqaruvidagi erkinlik ahamiyati shaxsning falsafiy-siyosiy dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qilgan;

klassik yunon falsafasi mutafakkirlarining qarashlarida erkinlik fenomenining evolyutsion transformatsiyasi dialektik jihatdan ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy, axloqiy, falsafiy, ruhiy erkinlikdagi plyuralistik g‘oyalarning zamonaviy mohiyatiga adekvat ekanligi dalillanganligiga oid xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Ma’rifat” ijodiy birlashmasi” davlat muassasasi tarkibidagi “O‘zbekiston tarixi” telekanalining “Taqdimot” ko‘rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Ma’rifat” ijodiy birlashmasi” davlat muassasasi tarkibidagi “O‘zbekiston tarixi” telekanalining 2025-yil 4-fevraldagi 01-33/42-son ma’lumotnomasi). Natijada yoshlar ongida erkin tafakkuri rivojiga, o‘z ichki ruhiy-ma’naviy olamini anglashga erishilgan;

antik davr klassik yunon falsafasi bilan sharq peripatetizm yo‘nalishi vakillarining qarashlarida erkinlik fenomeniga munosabatning komparativistikasi orqali g‘oyalar divergensiyasi sodir bo‘lgani oqibatida erkinlikning zamonaviy masalalariga deterministik jihatdan ta’sir etganligi isbotlanganligiga oid xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Imom Termiziy xalqaro ilmiy tadqiqot markazining ijtimoiy-ma’naviy, huquqiy, o‘quv-uslubiy va ilmiy sohalarga oid ishlarida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Imom Termiziy xalqaro ilmiy tadqiqot markazining 2025-yil 11-fevraldagi 01-07/20-son ma’lumotnomasi). Natijalar yoshlarning ongida erkin tafakkuri rivojiga, o‘z ichki ruhiy-ma’naviy olamini anglashga, ijodiy va kasbiy faoliyatini ta’minlashga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilishga, buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 25 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, 2 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 14 ta maqola (10 tasi respublika, 4 tasi xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 249 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, obyekt va predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya hajmi bo'yicha ma'lumotlar asoslangan.

Dissertatsiyaning **“Klassik yunon va sharq peripatetizmi falsafasidagi erkinlik fenomenining nazariy-metodologik aspektlari”** deb nomlangan birinchi bobida antik klassik yunon falsafasi va o'rta asr sharq peripatetizmida erkinlik kategoriyasini o'rganishning metodologik asoslari, o'sha davrlardagi mutafakkirlarning erkinlik to'g'risidagi qarashlarini solishtirishda komparativistik uslubning o'rnini hamda antik yunon klassik falsafasi va sharq peripatetizmidagi erkinlik fenomenining hozirgi zamon falsafasidagi qarashlar bilan qiyosi ochib berilgan.

Yunon va o'rta asr sharq falsafasi tarixini o'rganuvchilarni ikki xil ko'rinishdagi holatga tushib qolishlariga o'z tadqiqotlari davomida izlanayotgan paytlari “Aynan nimani tadqiq etish darkor?” degan savolga beriladigan javob sabab bo'ladi. O'sha davrga tegishli matnlar bilan ishlash zarurligi hamda Qadimgi Yunonistonda paydo bo'lgan, shuningdek, sharq peripatetizmida davom etgan falsafani umumiy jihatdan o'rganish holatlari vujudga keladi. Ta'kidlash o'rinliki, tadqiq etish jarayonida izlanuvchilar o'z nuqtayi nazarlariga yaqin bo'lgan dunyoqarash va shaxsiy g'oyaviy bilimlariga mos sharhlarga murojaat qilganlarida yoki mazkur fikrlarni o'zlariga qulay tomonga og'dirgan holda tahlil etganlarida yunon falsafasining asl mazmunini sezilarli tarzda o'zgarishi holatlari kuzatilishi mumkin. Metodologik yondashuvning soddalashib ketishiga shunday holatlar mavjudligini sabab qilib aytish mumkin⁵².

Yuqoridagi fikrga misol tariqasida tarixiy-falsafiy jarayon falsafiy matn va sharhlar bilan bir qatorda, ular tarkibiga kiruvchi mutafakkirlarning hayot sanalarini ham o'z ichiga oladi. Natijada esa falsafa tarixi tahliliy ko'rinish kasb etmay, o'ziga xos tarzdagi “mutafakkirlar jamlanmasi” ko'rinishiga ega bo'lishini aytish mumkin. Odatda, bu ko'rinishdagi jarayon orqali tadqiqotchi intiladigan biror maqsad ko'zlanadi yoki barcha tarixiy-falsafiy jarayonda yuzaga kelgan falsafiy g'oyalarning yig'indisi tasvirini ko'rsatishga mo'ljallangan natijalar beriladi. Bundan ayon bo'ladiki, “mutafakkirlar jamlanmasi” aks etgan tarixiy-falsafiy jarayonda xronologik tartib, ketma-ketlik birlamchi ko'rinish kasb etadi.

Ammo yuqorida aytilgan maqsad va falsafa tarixi bitiladigan tugal g'oya yoki natija tarixiy-falsafiy jarayonda mavjud ekan, u holda xronologiyani birinchi o'ringa qo'yish to'g'ri qaror bo'lmaydi. Shu tariqa, xronologiyani chetga surib, uning o'rniga teleologiyani qo'ysak, har tomonlama mos va qulay bo'lar edi. Teleologik yondashuvning umumiy ma'no-mazmuniga yana quyidagi ko'rinishdagi tasnifni


⁵² Вольф М.Н., Берестов И.В. Проблемный подход к исследованию древнегреческой философии // СХОЛН: Философское антиковедение и классическая традиция. – Новосибирск, 2007. Vol. I. 2. – С. 205-246.

qo‘shimcha qilish mumkin, ya’ni o‘rganuvchining mavjud g‘oyasi, idealidagi tasavvuri bilan sharhlovchi qayta tiklayotgan tugal g‘oya yoki natija qanchalik mos kelishiga qarab, qadimgi faylasuflarning ishlari baholanadi.

Ayni muammo dissertatsiyada muayyan metodologik asoslarga tayangan tarzda ochib beriladi, davr nafasiga moslashtirilgan holatda, uning transformatsiyaga uchrab borgani, shu bilan birga, uning davrlar o‘rtasidagi qiyosiy tahlili va hozirgi paytga kelib, bu masala dolzarbligini yo‘qotmay, aksincha, javob topishga qiziqish kuchaygani ko‘rsatib o‘tiladi. Demak, erkinlik masalasini tarixiy-falsafiy jarayondagi antik davr chegarasida o‘rganib, unga teleologik hamda bir vaqtning o‘zida muammoli yondashuv asosida ushbu kategoriyaning mantiqiy va tarixiy komponent orqali izchil tahlildan o‘tkazib, o‘sha davrga tegishli mutafakkirlar fikrlarini komparativistik usuldan foydalangan holda, uning aynan shu davrda, nafaqat shu, balki boshqa davrlarda ham sezilarli transformatsiyaga uchraganini aniqlangan.

Bularga qo‘shimcha tarzda tadqiqot ishini ilmiy va amaliy jihatdan boyitish maqsadida sotsiologik uslublarni ham yordam uchun jalb qilingan. Demak, sotsiologik yondashuv asosidagi tadqiqot usullaridan aynan sotsiologik so‘rovnoma va sotsiologik suhbat (intervyu) kabilardan foydalanilgan. Ushbu tadqiqot usullari yordamida jamiyatdagi, xususan, falsafa sohasi bilan yaqindan tanish bo‘lgan shaxslar ishtirokida erkinlik umumiy tushunilishi, shu o‘rinda antik davr va sharq peripatetizmi qarashlari bilan hozirgi davrdagi aynan erkinlikka bo‘lgan munosabatning o‘xshash tomonlari borligi, ayrim jihatlarda uni aynan tarixiy tajribalardan o‘rganishga zaruriyat mavjudligi kabi natijalarga ega bo‘lingan.

Sotsiologik so‘rovnomada “Alfaraganus university” nodavlat oliy ta’lim tashkilotining 200 ta talabalari ishtirok etdi. Tor guruhda o‘tkazilgan bu jarayonda, 96 %, ya’ni 193 ta 18-30 hamda 4 %, ya’ni 7 ta 31-60 oraliqdagi yoshgacha bo‘lgan universitet talabalari qatnashdilar. Jami ishtirokchilarning 65 %ini tashkil qiluvchi 130 nafar ayol va 35 %ini tashkil etuvchi 70 nafar erkak sotsiologik so‘rovnoma savollariga javob berdi. Bu so‘rovnomaning batafsil tahlili dissertatsiyada o‘z aksini topgan. Ushbu avtoreferatda uning bir qismi tahlili bilan umumiy natija keltirib o‘tiladi: erkinlikni qanday tushunishlari to‘g‘risidagi fikrlar, asosan, “o‘zi istagan ish, fikr, gap yoki faoliyatni xohlaganicha bajarish” ko‘rinishida aks etildi.



Umuman, sotsiologik so'rovnomadan olingan natijalarni tahlil qilinadigan bo'linsa, ularni antik davr va sharq peripatetiklarining g'oyalari bilan solishtirilsa, o'xshashliklar mavjudligini guvohi bo'lish mumkin. Lekin yoshlarning erkinlikni tushinishda ayrim kamchiliklar ham mavjudligi ko'rindi. Ularni bu holatdagi fikrlarini oqibatida ushbu fenomenni yanglish anglash jamiyatdagi juda ko'p muammo va eng yomon darajasi esa anarxiyaga sabab bo'lishi mumkinligini pragnoz qilish mumkin. Shunday ekan, erkinlikning antik davr va o'rta asr falsafasidagi mazmunini o'rganish hozirgi kun tajribasiga kerakli manba sifatida xizmat qiladi. Bundan tashqari, ushbu paragrafda erkinlik fenomenini bir davrning o'zida bir necha bor transformatsiyaga uchraganiga guvoh bo'lindi.

Shu bilan birga, tadqiqot doirasida sotsiologik suhbat o'tkazildi. Sotsiologik suhbat bir necha mutaxassislar, jumladan, falsafa fanlari doktori, professor J.M.Xolmo'minov, falsafa fanlari doktori, professor G.M.Ruzmatova, falsafa fanlari nomzodi, professor R.R.Karimov, falsafa fanlari doktori (DSc), professor G.T.Kabulniyazova, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent M.K.To'laganova, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent X.I.Toshov kabilardan olindi. Ular o'z ilmiy tajribalariga asoslanib, shaxsiy qarashlarini aytib o'tdilar. Ularning fikrlarini hozirgi zamon ruhiyatidan kelib chiqib, uni antik davr va sharq peripatetizmidagi erkinlik qarashlari bilan komparativistik usulda qiyoslash imkoni bor. Bu yerda ham sotsiologik intervyuning bir qismi tahlili bilan umumiy natija keltirib o'tiladi:

- erkinlik to'g'risidagi umumiy ta'riflardan uning nisbiy tushuncha ekanligi, uni doimo turli xil tushunish, ikki xil – tor va keng ma'noda qo'llanilishi ta'kidlab o'tildi. Keng ma'noda, inson sivilizatsiyasi yutug'i, inson qalbi holati sifatida keltirib o'tildi. Erkinlikni aynan inson ruhi, ichki dunyosi bilan bog'liqligi haqida fikr bildirildi. Tor ma'noda, mas'uliyat, huquq, burch, jamiyat rivojidadagi qonunlar doirasida inson faoliyati chegaralangani, shuningdek, u o'zining qalb amri orqali majburiyatlarini anglab bajarishi erkinlikni ta'minlashi mumkin. Shu bilan birga, erkinlik shaxs o'zini o'zi to'liq namoyon qila olishi, o'zi istagandek yashashi, fikrlash faoliyatining erkin tanlovi, iqtisodiy va fundamental huquqlari ta'minlangan holatda erkin yashashi to'g'risidagi qarashlar bilan ham bog'landi. Suhbat jarayonida ular antik davr va sharq falsafasidagi erkinlik masalalarga asoslangan holda o'z qarashlarini bildirdilar. Ushbu savolga javoblarni turli faylasuflar bilan qiyoslaydigan bo'linsa, ajoyib xulosalarga kelish mumkin. Sokrat, Platon, Ibn Xaldunlar kabi ularni aql mahsuli sifatida, ya'ni qonun qoidalarga anglab rioya etish, mas'uliyat orqali tushunildi. Shuningdek, ularning mavjudligi insonning mablag' masalasi bilan bog'lanishi haqidagi qarash esa aynan Ibn Xaldunning mulk atamasi bilan bog'lanadi. Aristotellarning jamiyatdagi erkinlik ketidan javobgarlik yotishi haqidagi to'xtam esa hozirgi zamonda erkinlikka chegara asosida harakatlanishi kerakligini ko'rsatadi.

Shuningdek, sotsiologik suhbatdan olingan umumiy qarashlarni komparativistik metod orqali o'rganilganda, ular o'rtasidagi yaqinlik insonlarning ilk fundamental fikrlari bir muncha darjada davrlar mobaynida o'zgarasligi orqali, farq esa har bir bosqichning o'ziga xos siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy

rivojlanishlar ta'sirida o'zgarishi bilan ifodalanadi. Bu qandaydir bir dialektik holatni yuzaga keltiradi, albatta. Aynan shu dialektika tufayli ham ularni qiyosiy tahlili amalga oshishi reallashadi. Ushbu yondashuv orqali ham erkinlikni yangi qirralari tarix davomida shakllanib boraveradi.

Tarixiy-falsafiy jarayonda turli davrlardagi turli faylasuflar qarashlari va falsafiy ta'limotlarni ketma-ketlikda o'rganish davomida ularni qiyoslash mazkur izlanishlarning erkin ruhiyatiga qay darajada mas'ullikni o'z bo'yniga oladi⁵³. Ushbu savolga javobni topish uchun komparativistika tarixiy-falsafiy jarayonining ichki mantig'ini izohlash bilan shug'ullanish lozim. Tarixiy-falsafiy jarayonning ichki mantig'i muammoli maydon doirasi ichida joylashgan falsafiy oqimlarni birlashtirish bilan shug'ullanishi talab etiladi. Barcha masalalar birligini ta'minlovchi bu kabi yondashuvda yuzaga keluvchi muammolarni ziddiyatlarsiz hal etishdan tashqari, aynan shu ziddiyatlarni hisobga olgan holda, muammolarni hal etishga urinuvchi boshqa falsafiy yo'nalishning paydo bo'lishi falsafiy fikrning rivojlanishini ta'minlovchi omil sanaladi⁵⁴.

Qiyoslash metodologiyasi ishlayotgan vaqtda ta'limotlar, qarash va g'oyalarning o'ziga xos o'xshashligini, ularning divergensiyasi va qutublanishini, vorisiylik jihatlarining sabablarini ko'rish, ular haqida tasavvur hosil qilish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Jarayon mobaynida biror falsafiy maktab, an'analar, madaniyatlar, tushunchalar takomillashish turlarining eski, nomaqbul variantlari izchil tahlil qilinib, yangi xildagi ko'rinishlari ishlab chiqish imkoniyatlari katta. Yana shuni qo'shimcha qilish kerakki, tarixiy-falsafiy jarayonga tegishli izlanish va tadqiqotning yangi namunalari sinovdan o'tkazilib, sintezlanadi. Bu jumlar falsafiy komparativistika, boshqacha aytganda, qiyoslash falsafasi oddiy va sodda uslub sifatida chegaralanib qolmasdan, balki ilmiy tadqiqotga oid amaliy-uslubiy yo'nalish sifatida yuzaga chiqishini tasdiqlab turibdi. Komparativistika asosini Sharq va G'arb falsafiy qarashlarini taqqoslash tashkil etmaydi. Uning muhim jihati "Insonga o'z hayotidagi ijtimoiy dunyoqarashga oid muhitni tushunishi, o'zgartirishi va qayta qurishiga ko'maklashgani holda, shaxsning qadriyatlarga oid tuzilmalarini tuzatish va ba'zan chuqur qayta qurishni ko'zda tutadi"⁵⁵.

O'rganilayotgan davrlarda erkinlikning ilk tasvirlari insonlar ongida shakllana borgan. Erkinlikning ilk tushunchasi antik davrda "qonun", "polis", "fuqaro" tushunchalari bilan bog'langan. Ammo keyinchalik bu atama kengroq ko'lamga yoyilgan hamda unga bo'lgan munosabat o'zgarib, qiziqish ortib borgan. Erkinlik polis chegaralagan doiradan chiqib, sofistlar qo'lida sof falsafiy tushunchaga aylangan. Uning inson bilan aloqasini keltirgan holda, erkinlik polis qonunlaridan tashqari holatda ham ega bo'lish mumkinligi haqidagi nuqtayi nazar keltirib o'tilgan. O'rta asr sharq peripatetizmi falsafasida esa antik davr falsafasining ta'siri sezilib turadi. Erkinlikni kelib chiqish manbasi sifatida sharq peripatetiklari xudoni keltirib o'tganlar. Ushbu fenomen haqidagi qarashlar jamiyat, axloq, siyosat va iqtisod bilan bog'lanadi.

⁵³ Смирнов Л.В. Великий шейх суфизма. – М., 1993. – С. 10.

⁵⁴ Karimov R.R., Ruzmatova G.M. Falsafiy komparativistika. Darslik. – Toshkent: Universitet, 2021. – B. 6-30.

⁵⁵ Овсянников В.Г. Методология и опыт сравнительного анализа социального развития // Россия и Китай: Социальные и политические проблемы развития. – СПб., 2003. – С. 7-8.

Agar yunon klassik falsafasi vakili Sokrat fikrlarini undan oldin yashab oʻtgan faylasuflar qarashlari bilan taqqoslasak, uning spetsifik hech kimga oʻxshamagan yondashuvini koʻrish mumkin. U ilk bora axloqiy tanlovni erkinlik sifatida qoʻllaydi. Yaʼni avvalgidek inson faqat polis fuqarosi boʻlgani uchun yoki hech qanday tazyiqlarsiz faoliyat olib borish orqali erkin hisoblanmay, axloq normalari chegarasidan chetga chiqmagan holda, faoliyat olib borishi orqali erkinligini aytib oʻtgan. Erkinlik oʻz hirslarini qondirish faoliyati emas, balki ana shu hirsdan voz kechgan holda ezgulikka intilishdir. Bu qarashlar Ibn Xaldun ijodida ham uchraydi. Yaʼni asabiya va mulk atamalaridan kelib chiqib, erkinlik insonning jamiyatdagi oʻrni orqali belgilanadi.

Yana bir komparativistik tahlilni Sokrat va Platon qarashlarini solishtirganda koʻrish mumkin. Platon oʻzining falsafiy qarashlarining boshida Sokratning fikrlariga qoʻshilgan holda, inson qalbi oʻz taqdirini erkin ravishda tanlaydi, unga hech qanday toʻsiqlar qoʻyilmaydi, hech qanday aralashuvlar uning erkin tanlovini oʻzgartira olmaydi. Qalb tanlovdan soʻng barcha xotiralarni unutib, oʻsha tanlagan qismati bilan yashaydi. Sokratning erkinlikka erishish toʻgʻrisidagi fikrlarida Platon faylasuflargina unga yetishgan holda soyalar olamidan chiqishlari mumkinligi haqida fikr yuritadi. Biroq faoliyatining soʻnggi davrlarida Platon erkinlikka inson uchun zararli va kerak boʻlmagan narsa sifatida qaray boshlaydi. U oʻzining “Davlat”⁵⁶ida erkinlik inson qoʻlida vayronkorlikka olib borishi toʻgʻrisidagi salbiy fikrlarni ilgari suradi. Erkinlik faqat davlatga xos, barcha davlat uchun xizmat qilishi darkor. Shuningdek, Platonni Farobiyning nuqtayi nazari bilan qiyoslaganda oʻxshashliklarni juda koʻpini uchratish mumkin. Farobiy erkinlikni davlatda salbiy jihatlari johil odamlar shahridagi boshqaruvda sezilarli joy olishini tahlil qilish mumkin. Shuningdek, u har bir johil shahardagi boshqaruv turlarini tariflab oʻtgan.

Aristotel va Platon qarashlari tahlil qilinganda, ularning farqlarini anglash qiyin emas. Aristotel Platonning fikrlarini yoshlik davrida yoqlaydi, ulardan ilhomlanadi, hayratlanadi. Ammo vaqt oʻtib, ustozining kamchiliklarini anglab, oʻz fikrini oʻzgartirib boradi. U erkinlikni salbiy tusda koʻrmaydi, yana uni mavhumlik bilan ham bogʻlamaydi. Erkinlik har bir insonda erkin faoliyat yuritish, oʻzboshimchalik bilan ifodalanadi. Inson koʻpincha aql bilan emas, balki hissiyot, ehtiroslar bilan ish tutadi. Shunda uning erkin tanlovi yuzaga chiqadi. Mustaqil xatti-harakat qilar ekan, har bir faoliyatining keltirib chiqaruvchi oqibatlariga ham oʻzi masʼuldir. Oʻzboshimchalik tagida qilmishlariga javobgarlik, masʼuliyat kabi faktorlarga ham bogʻlanib ketadi. Har bir inson muayyan qilmishni tanlash imkoniga ega va bu tanlovda u mustaqil. Tanlovining oqibatiga oʻzidan boshqa hech kim javobgar emas. Koʻrinib turganidek, erkinlik Aristotel yondashuvida determinizm bilan uygʻun holda keladi. Jumladan, Ibn Rushdning zamondoshlari fikrlariga raddiya bildirishlari asosida paydo boʻlgan erkinlik koʻrinishini Aristotel qarashlari bilan solishtirganda inson faoliyati ixtiyoriy ravishda amalga oshirilishi, ammo ularga javobgarlik oʻzlarning boʻyinlarida boʻlishi haqidagi qarashlari bir-biriga juda yaqin. Ammo Ibn Rushd bu faoliyatni xudo belgilab berishi haqidagi fikrni ham qoʻshib oʻtadi.

⁵⁶ Платон. Сочинения в четырех томах / Под общ. ред. А.Ф.Лосева, В.Ф.Асмуса. – СПб., 2007. – 629 с.

“Erkinlik” fenomenining tarixiy jihatdan o‘zgaruvchanligiga yuqoridagi fikrlar asos bo‘lib xizmat qiladi. Erkinlik ichki ziddik, o‘zgaruvchanlik, moslashuvchanlik kabi sifatlar bilan xarakterlanadi. U jamiyat rivojida alohida o‘rin tutadi. Aynan erkinlik tufayli inson evolyutsiyaning nafaol obyekti bo‘lishidan asralib, jamiyat taraqqiyot jarayonida faol shaxsga aylanadi. Erkinlikning kaos, stixiyali ko‘rinishda gavdalanishi, o‘z navbatida, jamiyatning parokanda bo‘lish xavfini uyg‘otadi hamda bu kabi erkinlikka jamiyatda yo‘l qo‘yilmaydi. Falsafa tarixining o‘zida namoyon bo‘luvchi tanlov – iroda erkinligining turli xil transformatsiyaga, ya’ni sifat o‘zgarishlari, modifikatsiyaga uchrashi ko‘rinishidagi jarayonlarni biologik evolyutsiyadagi tabiiy tanlanishga o‘xshatish mumkin. Falsafa tarixini o‘rganish davomida antik davr falsafasi ko‘pgina kategoriyalar, tushunchalar va ta’limotlarga ilk debocha bo‘lib xizmat qilgani ma’lum bo‘ladi. Erkinlik fenomeni ham bundan mustasno emas.

Dissertatsiyaning **“Antik yunon klassik falsafasida erkinlik haqidagi qarashlarning transformatsiyasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida Sokrat va uning maktablari falsafasida erkinlik talqinining divergensiyasi, erkinlik atamasining Platon ta’limotidagi dialektikasi hamda Aristotel qarashlarida erkinlik fenomeni determinizmi ko‘rsatib o‘tilgan.

Tarixiy-falsafiy jarayonda erkinlik haqidagi tasavvurlar kundalik ongdagi doimiylikda ham, huquqlar tizimida ham, falsafiy ta’limotlarda ham ma’lum bir darajada transformatsiyaga uchragan. Aynan antik falsafada inson erkinligi va huquqlari o‘rtasidagi aloqadorlik yaxshi ochib berilgani hech kimga sir emas.

Antik jamiyatda qullik mavjud narsadek qaralgan bo‘lsa, unda erkinlik muammosi qul holatiga aloqasi bo‘lmagan. Huquq va erkinlik faqat fuqaroligi bo‘lgan shaxslargagina tegishli bo‘lgan. Jumladan, mas’uliyat faqat ularning zimmasida turgan. Klassik polisda fuqaro erkinligi uning xo‘jalik avtarkiyasi (o‘z-o‘zidan qoniqish, tashqi muhitga tobe bo‘lmaslik) fuqaroviy teng huquqlilik va jamoa oldidagi burchni bajarishi bilan mos kelishini nazarda tutgan. U ular orqali meteklar va qullardan, ya’ni fuqaroviy jamoaga nisbatan tashqi insonlardan ajratib turuvchi tabiiy holat va merosiy ustunlik kabi qabul qilingan. Antik Yunonistonda erkinlik an’anaviy tarzda qullik, tobelik, tutqunlikning antitezasi sifatida namoyon bo‘lgan, shuningdek, erkin va qulni antinomiya antik yunon madaniyatini, yana ham ko‘proq ellin va varvar qarama-qarshiligini xarakterlaydi. M.Poletsning fikricha, “Tarixan aynan erkin bo‘lmaganlar, qullarning mavjudligi, birinchi o‘rinda, boshqalarga o‘zlarining shaxsiy erkinligini his qilish imkonini bergan”⁵⁷.

O‘n yillar o‘tib, uning shogirdlari tomonidan yozilgan dialoglarda aks etgan bir qator suhbatlari buning dalolatidir. Platonning “Gorgiy” dialogidan olingan birinchi faylasuf Afin bilan sofist Kalliklning hamda Ksenofontning “Sokrat haqida xotiralar” nomli ikkinchi kitobidagi shogirdi Aristipp bilan bo‘lgan polemikasiga e’tibor qaratish joiz. Bu ikki bahs hissiy lazzatlanish ustidan aqliy nazoratni hamda shu yuzasidan, Sokrat va uning opponetlari uchun xos bo‘lgan erkinlikning turli tushunchalari paydo bo‘lishi borasidagi mavzularni bir-biriga yaqinlashtirgan. Lekin afinalik mutafakkirning argumentlari bu ikki bahsda ham o‘xshashligiga

⁵⁷ Polenz M. Freedom in Greek Life and Thought. The History of an Ideal. – Dordrecht, 1966. – P. 3.

qaramasdan Kallikl va Aristipp himoya qilayotgan erkinlikning turli “konseptlari”ga qarshi borishiga to‘g‘ri keladi. Shu o‘rinda, Sokratning pozitsiyasiga xos bo‘lgan tanish qarama-qarshilik kelib chiqishiga e‘tibor bermaslikning iloji yo‘q.

Inson muammolarining axloqiy jihatlarini o‘rganar ekan Sokrat erkinlikni nafaqat tanlov, balki ezgulik, yaxshilik, axloqiylik bilan ham bog‘lagan. Sokrat etikasi pozitsiyasidan erkinlik refleksiyasida individuallik va jamoaviylik simbiozi vujudga keladi. Ilk bora inson erkinligi o‘z chegaralarini boshqa bir inson erkinligi chegarasigacha borib tugata oladi, degan fikr shakllanadi.

Sokratning bu kabi erkinlikni axloq bilan bog‘lashi o‘ziga xos ma‘noni keltirib chiqargan. Insonning erkinligi jamiyat qonun-qoidalariga bo‘ysungan holda axloqiy kategoriyalardan biri bo‘lgan ezgulikka intilish bilan aloqador. Shunday ekan, individ o‘zining xususiy, moddiy ehtiyojlaridan ozod bo‘lib, komillikka intilishi haqiqiy absolyut erkinlikka bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tish bilan tenglashtiriladi. Bu kabi g‘oyalar tasavvuf ta‘limotining ayrim qarashlari bilan mos kelishini anglash qiyin kechmaydi.

Bundan tashqari, Sokrat maktablarining falsafiy ta‘limotlarida, kiniklar va kirenaiklarda fuqarolar erkinligining boshqacha talqinlarini keltirib chiqarish mumkin. Kiniklar nuqtayi nazari bo‘yicha inson o‘z tabiatiga ko‘ra gunohkor va zolim, shu tufayli u erkinlikni qo‘lga kirita olmaydi. Bularning barini aybdori tabiat ne‘matlarining cheklanganligidir. Shu o‘rinda “Gunohkor inson o‘z ehtiroslariga tobe va o‘z qalbining eng qimmatli boyligi – erkinlikni yo‘qotadi”⁵⁸. Kiniklar maktabi vakillari sof erkinlik haqidagi savolni o‘zining individual hayoti davomida sotsium oldidagi mas‘uliyati orqali belgilashgan. Kiniklar pozitsiyasi bo‘yicha avtarkiya sof erkinlik sanaladi. U shaxsning mustaqilligi va avtonomligini o‘z ichiga oladi, ular esa “nodonlar ortidan quvayotgan ne‘matlardan qimmatliroqdir”⁵⁹.

Sokrat maktablariga qarama-qarshi uning shogirdi Platon erkinlikni ideal davlatdagi eydoslarni o‘zida mujassam etgan holda talqin qilgan. Faqat sotsiumning bunday ijtimoiy ko‘tarilishlar mavjud bo‘lmaganda va fuqarolarni guruhlariga bo‘lish qonunlashtirilgan modelida erkinlik qat‘iy ko‘rsatmalar chegarasida faoliyat doirasini mo‘ljallaydi. Shu o‘rinda, “Davlat uchun haddan ortiq erkinlik haddan ziyod tobelikka aylanadi”⁶⁰. Biroq platonchilik pozitsiyasi bo‘yicha davlat qonunlariga bo‘ysunish zaruriyati tan olinadi. U o‘z ichiga individ mas‘uliyati va tanlov uchun taqdim etilgan variantlarni oladi. Platonning fikricha, “Qonun kuchga ega bo‘lmagan hamda kimningdir hokimiyati qo‘l ostida bo‘lgan davlat barbod bo‘lishga yaqinroqdir. Qayerda qonun bo‘lsa, u boshqaruvchining hukmdoridir, ular esa uning tobesi, men davlatni saqlab qolish va ma‘budlar davlatga bera oladigan har qanday ne‘matlarning barchasini ko‘zdan kechirib chiqmoqdaman”⁶¹. Jumladan, aynan qonun “erkinlikning yagona asl namoyoni”⁶² bo‘lib turadi. Shunday ekan, faqat erkinlikning mavjudligi borasidagi savollargina emas, balki u individga zaruriy ahamiyat kasb etadimi, qonunchilikka bo‘ysunish va davlat manfaatlarining

⁵⁸ Бирюков П. Греческий мудрец Диоген. – М.: Посредник, 2010. – С. 37.

⁵⁹ Кедров Б.М., Богуславский В.М. Антология кинизма. – М.: Наука, 1984. – С. 14.

⁶⁰ Платон. Собрание сочинений. В 4 т. – М.: Мысль, 1994. Т. 3. – 352 с.

⁶¹ Алексеев П.В., Панин А.В. Хрестоматия по философии. – М.: Проспект, 2003. – С. 99, 519.

⁶² Платон. Диалоги. – М.: Мысль, 1986. – С. 22.

ustunligi zaruriyati bilan qanday bog‘langan, degan savollar ham tug‘ilishi tabiiydir. Xususiylik munosabatida umumiylik dominantligini tan olgan holda Platon shunday xulosaga keladi, qonunga bo‘ysunish va an‘analarga sodiq qolish erkinlikka ehtiyoj qoldirmaydi, davlat manfaatlarining ustunligiga to‘siq bo‘ladi, isyon va bo‘ysunmaslikka asos bo‘ladi. Erkinlik eydoslari davlat sifatidir, shaxsning emas, davlat boshqaruvining ideal modeli imtiyozidir, individning emas.

Shunday qilib, Platon o‘z falsafiy qarashlarida erkinlik dialektik xarakter kasb etadi. U o‘z ta‘limotidan kelib chiqib, g‘oyalar va soyalar olamida erkinlik mavjudligini tan oladi. Biroq tushunchani salbiy tus olishi Platon ijodida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Demak, u erkinlikni inson uchun xavfli ta‘siri, erkin tanlovdagi qiyinchilik va murakkablik, davlat va jamiyat faoliyatida negativ oqibatlarga olib kelishi borasidagi fikrlarga bir necha bor to‘xtaladi.

Aristotel o‘z ishlarida erkinlik atamasini o‘ziga xos yondashuv bilan ko‘rib chiqadi. Uning asar va ta‘limotlarida erkinlik so‘zi turli sohalarda, turli ko‘rinishda aks etadi. Falsafiy qarashlari joy olgan “Metafizika” asarida Aristotel donishmandlikni talqin qilish jarayonida bu donolik xislatini nazariya (“theoretikai” – teoretika) ilmiga mos kelishini aytib o‘tadi. U ushbu ilmga yuqori baho berib, uni yuksaklarga ko‘taradi. Uning faoliyatini esa erkin sifati bilan ta‘riflaydi: “...Boshqalar uchun emas, balkim faqat o‘zi uchun o‘zi yashaydigan insonni erkin deb aytsak, unda xuddi shuningdek ushbu ilm ham yagona erkin ilmdir, ya‘ni u faqat o‘zi uchungina mavjud sanaladi”⁶³. Bu kabi izoh erkinlikning jo‘n shakli hisoblanadi. Ammo bu uning asl mazmuniga putur yetkazmaydi, aksincha, to‘ldiradi va soddalashtiradi.

Jumladan, Aristotelning erkinlik tasnifida o‘zidan ilgari ijod qilgan faylasuflar qarashlaridan farqli va o‘xshash jihatlarni uchratish mumkin. Aristotel ta‘limotida insonga quyidagicha talqin beriladi: u faoliyatga, noyob sifat sanalgan erkin tanlovga ega mavjudot. Ushbu tanlovni amalga oshirish uchun bilimning o‘zi yetarli emas, balki irodaviy akt ham zarur. Erkinlik tomon ezgu bilim va ezgulikka intilish ko‘rinishini olgan, mukammallashgan avtarkiya bilan yo‘g‘rilgan holda borish darkor. Bu qarashlari Aristotelni Sokratning erkinlikni axloqiy tanlov bilan ifodalagan tasviriga yaqinlashtirib qo‘yganini kuzatish mumkin.

Faoliyat xarakteristikasi tarzidagi erkinlik talqini bilan bir qatorda, Aristotel uni “o‘zboshimchalik” va “ezgulik” tushunchalari bilan bog‘lagan holda ko‘rib chiqadi. Faoliyat o‘zboshimcha va o‘zboshimcha bo‘lmagan turlarga bo‘linadi. Birinchisiga, ya‘ni o‘zboshimcha faoliyat turiga ishlab chiqilgan normalar, o‘rnatilgan qoidalar, tabiiy yoki ijtimoiy tartibga bo‘ysunish yoxud keltirib chiqaruvchi oqibatidan bexabar bo‘lgan, ma‘lumotga ega bo‘lmagan holda ularni amalga oshirish kabilar xos.

O‘zboshimcha faoliyat uchun idrok va asos zaruriy shartlar sanaladi. Ular baribir ham ongli tarzda aktuallashtiriladi. Faoliyat va qilmishlarni maqsad, vositasini aniqlovchi tanlov erkinligi inson voqeligida aql hamda bilim yordamida paydo bo‘ladi. Bundan o‘zboshimcha faoliyatlar amalga oshirilishi uchun aniq bir erkinlik va anglanganlik kabi xususiyatlar talab etilishini xulosa qilish mumkin.

⁶³ Аристотель. Сочинения в 4-х томах // Метафизика. – М.: Мысль, 1976. Т. 1. – С. 69.

Demak, Aristotel erkinlikni o'zboshimchalik hamda mas'uliyat bilan bog'lagan. Inson Koinot tomonidan taqdim etilgan tuhfani aql yordami bilan maqsadga yo'naltirishi zarur. O'zboshimchalik erkinlik bilan chambarchas bog'lanar ekan, erkin tanlov uchun javobgarlikni ham, o'z navbatida, qabul qilishi darkor. Inson bajarayotgan qilmishlari uchun, ya'ni o'zi tanlab qilayotgan harakatlariga mas'uliyatni o'z bo'yniga oladi. Uning keltirib chiqaradigan oqibatlari uchun ham faqatgina o'zi sababchidir.

Yuqorida keltirilgan faylasuflar ijodida erkinlik atamasi tugal ko'rinish kasb etmagan. Aksincha, uning serqirraligi ortib, keyingi avlod faylasuflari dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatmay qolmagan.

Dissertatsiyaning **“Sharq peripatetizmi vakillarining erkinlik kategoriyasiga munosabati”** deb nomlangan uchinchi bobida Abu Nasr Farobiy falsafasining ijtimoiy-siyosiy tizimida erkinlik o'rni, Ibn Rushdning raddiyalar orqali shakllantirgan erk va qismat masalasi hamda Ibn Xaldun qarashlaridagi tarixiy yondashuvda erkinlikni boshqaruv bilan aloqasi kabilar namoyon bo'lgan.

Erkinlikni antik davrdagi tuslanishini ko'rib chiqish jarayonida shunga amin bo'lish mumkinki, uning sarmazmunligi o'z davrining chegarasidan chiqib keyingi davrlarda ham aktual masala sifatida qoladi. Shuni hisobga olgan holda falsafa tarixidan sezilarli va o'ziga xos o'rin egallagan arab-musulmon falsafasini ham erkinlik fenomeni chetlab o'tmagan. Ayniqsa, yunon klassik falsafasini o'rgangan va ularning merosiga sharhlar qoldirgan sharq peripatetizmi vakillarini ta'kidlab o'tish joiz.

Sharq peripatetizmini tizimlashtiruvchisi sifatida esa Abu Nasr Farobiy⁶⁴ namoyon bo'ladi. U Aristotelning tirik qarashlarini ilib olgan va rivojlantirgan, mantiqiy bilimlarini o'z falsafasida qo'llagan. “Farobiy – barcha hayotiy tomonlarning hammasini o'ziga qamrab oluvchi falsafiy qarashlar tizimini topadigan birinchi sharq arab-musulmon falsafasining mutafakkiri sanaladi”⁶⁵. Bu to'g'ri fikrni aytib o'tgan muallif yana tabiiy fanlar rivojiga katta hissa qo'shmagan kabi asoslanmagan tanqidni ham keltirib o'tadi⁶⁶.

Farobiyning mulohazalaridan anglash mumkinki, erkinlik insonlarning aql-idroki, tafakkuri va qaror qabul qilish mas'uliyati bilan bog'liq xususiyat ekan. Demak, tafakkur va qaror qiluvchilar erkin shaxslar bo'lib, ular lazzat va azob-uqubatlardan o'z aqlari yordamida yomon ishlardan qochishda foydalanadilar. Shu bilan birga, u iroda va qalbning aqliy hamda boshqa qismlaridan vujudga keluvchi istaklar haqida gapirar ekan erkin tanlov insonni boshqa mavjudotlardan ajratib turuvchi hislat ekanligini va u tufayli o'zboshimchalik amalga oshirili mumkinligini aytib o'tadi. Shu orqali insonlar erkin tanlovlari orqali bajargan barcha ishlariga va qilmishlariga mas'uliyatni hamda o'zlarining hayotlarida sodir bo'ladigan

⁶⁴ Farobiy (taxallusi; to'liq nomi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug' Tarxon Forobiy) (873, Farob shahri – 950, Damashq) – O'rta Osiyoning mutafakkiri va qomusiy olimi. Yunon falsafasini chuqur bilgani, unga sharhlar bitganligi va jahonga targ'ib qilgani hamda zamonasining ilmlarini puxta o'zlashtirib, fanlar rivojiga ulkan hissa qo'shgani uchun “al Muallim assoniy” (“Ikkinchi muallim”, Aristoteldan keyin), “Sharq Arastusi” nomlariga sazovor bo'lgan.

⁶⁵ Соколов В.В. Средневековая философия. – М., 1979. – С. 219.

⁶⁶ O'sha manba. – С. 218.

hodisalarga javobgarlikni bo'yinlariga oladilar. Aynan shu hislat, yuqorida ta'kidlanganidek, erkinlikni ta'minlab berish bilan bir qatorda insonlarni boshqa jonzotlardan farqlab, ajratib ko'rsatuvchi omil ham sanaladi.

Shu bilan birgalikda, erkinlik fenomeni Farobiyning siyosiy-ijtimoiy qarashlaridan ham joy olganini aynan shu boradagi falsafiy nuqtayi nazaridan bilib olish mumkin. "Fuqarolik siyosati" risolasida u jamiyatdagi odamning tabiati bo'yicha darajalarga bo'linishi haqida og'iz ochadi. Demak, Farobiyning jamiyat bilan bog'liq fikrlarini ko'rib chiqish jarayonida uning erkinlikni jamiyatdagi amaliy o'rniga bo'lgan munosabatini anglash qiyinchilik tug'dirmaydi. Buni asosi esa uning "johil Shahar" atamasi bilan bog'liq bo'lgan barcha tizimida ko'rinadi. Uning nomukammal jamiyatlariga johil (*johiliya*), fosiq (*fasiha*), o'zgaruvchan (*mubadila*) va adashgan (*dalla*) kabi nomlanuvchi birlashmalar kiradi.

Farobiy erkinlik fenomeniga o'zining diqqat-e'tiborini qaratmagan. Uning bu borasidagi qarashlari risolalarida asosiy masala sifatida aks etmagan. Lekin bu erkinlik tushunchasini u umuman e'tibordan chetga chiqarib, unga munosabat bildirmagan degan fikrni anglatmaydi. Uning bu atamani ma'lum bir falsafiy muammolarni o'rganib chiqish jarayonida o'z nuqtayi nazarini bildirib ketgan. Dissertatsiyaning obyektidan kelib chiqib, uning meros qoldirgan risolalaridan faqat bizga kerakli mavzuni ajratib tahlil qilindi. Shunda aniq bo'ldiki, Farobiy erkinlik masalasini uning aynan ijtimoiy-siyosiy qarashlarida yorqinroq ifodalangan. Demak, insonlarga berilgan haddan ortiq erkinlik jamiyatni parokanda qilishi, uning qadriyatlari yo'qolishiga olib kelishi hamda idrokni xiralashtiruvchi tubanliklarni shakllantirishi mumkinligini e'tirof etgan. Uning bu ko'rinishdagi fikrlari Platon qarashlarini yodga soladi.

Falsafa tarixining har bir jabhasi yorqin, xilma-xil, o'ziga xos ayrim joylarda takrorlansada o'zining qirrasiga ega nuqtayi nazarlar to'plami bilan nur sochadi. Shunday ekan, har bir davrning o'z jilosi va o'rni mavjud. Shu jumladan, sharq peripatetizm vakillari arab-musulmon falsafasiga, ayniqsa, ilm-fan ravnaqi uchun eshiklarni keng ochishga o'zini katta hissalarini qo'shganlar. Aynan shu falsafiy guruhning vakili sanalgan Ibn Rushdni bu o'rinda eslab o'tish joizdir. Ibn Rushdning yoki boshqacha aytganda, Averroes⁶⁷ning deyarli butun bir XII asr davomida hayot kechirgan va musulmon sivilizatsiyasi tarixida juda muhim bo'lgan ushbu davrning barcha voqealari bilan bog'liq.

Ibn-Rushd mutakallimlarga qarshi erkinlik haqidagi haqiqiy falsafiy nazariyalarni himoya qilgan. Insonga nisbatan mutlaqo erkin yoki mutlaqo tobe deb aytish mumkin emas. Qalbdagi ko'rib chiqilgan erkinlik hech qanday cheklovlarni bilmaydi; lekin u tashqi sharoitlarning fatalligi bilan cheklangan. Harakatlarimizning asosiy sababi – ichimizda; lekin u bizdan tashqarida joylashgan tasodif bilan to'qnashadi; ushbu bizni o'ziga tortadigan tashqi narsa bizga bog'liq emas va faqat tabiat qonunlarigagina, ya'ni ilohiy ta'minotga bo'ysunadi. Shuning uchun Qur'on odamni taqdir qo'lidagi mavjudot yoki o'z harakatlarida erkinlikka

⁶⁷ Averroesning lotincha nomi "Ibn"ni "Aben" yoki "Aven"ga aylantiradigan ispancha talaffuz ta'siridan kelib chiqqan. Averroes nomi kabi turli xil transkripsiyalarda o'qiladigan ismni boshqa yerlarda topish qiyin: Ibin-Rosdin, Filius Rosadis, Ibn-Rusid, Ben-Rashid, Aben-Rassad, Aben-Rois, Aben-rusd, Aienrosd, Asnroisd, Averroisd va boshqalar.

ega zot sifatida tasvirlaydi. Bu kabi nuqtayi nazar jabariylar qarashlari bilan kadariylar ta'limotlarining o'zaro o'rtacha qismi olingan bo'lib, Ibn Rushd namuna sifatida o'zining "Diniy aqidalarni isbotlash usullari" risolasida diniy ta'limotlarga berilishi mumkin bo'lgan falsafiy va eklektik talqinni keltirib o'tgan. Xuddi shu tarzda, u boshqa joyda, birinchi materiya bir xil darajada qarama-qarshi modifikatsiyani boshdan kechirishga qodir, xuddi shu tarzda qalb ikkita qarama-qarshi harakatlar o'rtasida tanlov qilish imkoniyatiga ega, deb aytadi. Biroq bu erkinlik na injiqlik, na tasodif sanalmaydi. Faol qobiliyatlar befarqlik holatini bilmaydi; faqat passivlik dunyosida befarq tasodifni uchratish mumkin.

Ibn Rushdning erkinlik va zaruriyat o'rtasidagi munosabatni tushunishi uning ushbu ikki tushunchaning ikkinchisini tasniflovchi tarifni talqin qilishida ochib berilgan. "Zaruriyat" atamasi, deb yozadi u, uch ma'noda qo'llaniladi: "*materiya tufayli*" boshqa biror narsasiz mavjud bo'lolmaslik ma'nosida, masalan, qon bilan ta'minlangan hayvon nafas olmasdan mavjud bo'lolmaydi; *majburiyat ma'nosida*, bu tanlov tushunchasiga qarama-qarshi qo'llaniladi, shuning uchun qadimgi yunon shoirlari bu zaruriyat turini qandaydir qiynoqqa soluvchi va og'riqli holat deb ta'riflaganlar; ma'lum bir sifatga ega bo'lgan narsaning majburiy xususiyati ma'nosida, masalan, osmon zaruriyat tufayli abadiydir, deymiz. Erkinlik ("tanlov") shu bois Ibn Rushdning fikriga ko'ra, umuman zaruriyat emas, balki uning faqat bitta shakli – majburiyat, ya'ni Jabariylar va ular bilan birga Ashariylar, Ibn Rushd ta'kidlaganidek, ular ruhiy impulslar orqali vositachilik qilishi yoki qilmasligidan qat'i nazar dunyodagi barcha harakatlarni belgilaydigan yagona prinsip deb hisoblangan. Ibn-Rushd har bir shaxsning alohida qabul qilingan barcha harakatlarining fatal qismati haqidagi ashariylar ta'limotini rad etadi. Xudo orqali (tabiat tizimi), uning so'zlariga ko'ra, faqat bir odamlar ezgulikka, boshqalari yovuzlikka moyil ekanligi aniqlanib qo'yilgan (bu holatga faqat odamlarning umuman yo'qligi alternativa bo'lishi mumkin). Muayyan shaxsning u yoki bu toifaga aloqadorligi uning temperamenti, irodasi va tafakkurini belgilaydigan ko'plab "oraliq" sabablar bilan aniqlanadi, natijada bu shaxs shunday bo'lib qolishi yoki bo'lmasligi mumkin⁶⁸.

Garchi insonning irodasi va ongi zaruriyat qonuniga bo'ysunsa-da, bu zaruriyat bir vaqtning o'zida uning ezgulikka intilishini anglatadi. Asl ezgulik yoki baxtga inson amaliy aql lozim topgan darajada va vaqtda nimaga intilishi joiz bo'lsa, shunga intilishi uchun ratsional qalb hayvoniy potensial harakatlarni nazorat qilganidagina erishish imkoni mavjud. Ammo tabiat odamlarga turli xil moyilliklarni berganligi sababli, to'laqonli baxtga faqat ozchilikka tegishli spekulyativ (xayoliy) fazilatlar hamma uchun mavjud bo'lgan amaliy fazilatlarni rivojlantirishga yordam beruvchi ideal davlatda erishish mumkin.

Abu-Zeyd Abdurahmon Ibnu Muhammad Ibn Xaldun arab yozuvchilarining asarlarida, xususan Ibn Al-Xatib va Shamsiddin as-Sahavi asarlarida, shuningdek, faylasuf tomonidan yozilgan avtobiografiyada hayoti juda batafsil yoritilgan O'rta asr arab mutafakkirlaridan biridir. Ibn Xaldunning "Muqaddima" asaridan erkinlik atamasi to'g'risidagi qarashlarini saralab olish qiyin kechmaydi. Butun umrining

⁶⁸ Сагадеев А.В. Ибн-Рушд (Аверроэс). – М.: Мысль, 1973. – 207 с.

falsafiy faoliyati jamiyatni qanday tuzilganligi va tarixini o'rganishga bag'ishlangan, shu asnoda jamiyatdagi erk masalasiga qaratilgan diqqatni tahlildan o'tkazish talab etiladi. Bunda ko'proq uning birinchi kitobiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Unda hokimyat, jamiyat, ularning ijtimoiy-iqtisodiy holati haqida so'z boradi.

Inson irodasi haqida gap ketar ekan, Ibn Xaldun uning erkinligini ta'kidlaydi. Ya'ni insonlar aynan shu erkinlik orqali fikrlaydilar, ma'lum bir paydo bo'lgan masalalar bo'yicha tafakkur yuritadilar. Erkinlik va majburiyatlarini ham aql yordami bilan amalga oshirishlari hamda tabiatga ergashish bilan kifoyalanmasliklari orqali ajralib turadilar. Insonlar bir-birlari uchun turtki vazifasini o'taydilar, to'g'rirog'i, ma'lum bir shaxslar boshqa birlariga ta'sir etgan holatda harakatga chorlab turadilar. Erkinliklarning ma'lum ko'rinishdagi chegaralanishi aynan mana shu munosabatlarda ko'rinadi. Agar insonlarga erk berilsa, ular na boshqalar va na o'zlari uchun foydali hamda ko'maklashuvchi ishlar qilishdan qochadilar, degan fikrni ilgari surgan holda Ibn Xaldun odamlarni majburlovchilar, erklarini cheklovchilar bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Tabiatan insonlar boshqalarga yordam berishni istashmaganlari uchun majburiyat tuyg'usini uyg'otuvchilar bo'lishi zarurligini ham eslatib o'tadi. Uyg'otuvchilar harakat qilishni istamaydiganlarga turtki bergan holda, ularni faoliyat yuritishga chorlaydilar. Bu yondashuv, ya'ni ta'sir etish munosabatlari Nyutonning fizikadagi mashhur mexanika qonunlarini eslatib yuboradi. Jumladan, harakatlar biror ta'sir ostida yuz berishi determenizmdagi sabab oqibat zanjirini ishlashini ham bildirib turadi.

Ibn Xaldunning barcha fikrlari jamiyatdagi shaxslarning faravon, boy, baxtli hayoti uning ta'sir doirasi bilan bog'liqligini bir necha bor ta'kidlagan. Eng ulkan va ulug' ne'matga aynan boshqalarga turtki beruvchi ta'sir kuchi kiradi. Aynan shu orqali u o'zgalarni va o'ziga bo'ysunuvchilarni boshqaradi, ta'sir o'tkazadi. Shu xislatga ega bo'lishni istaganlar o'zidan yuqori mavqedagilarga xushmuomala bo'lishi, xushomadlar qilishi, aytganlarini bajarishi, ularga bosh egishi kabi harakatlarni amalga oshirishi kerak. Agar mag'rurlik bilan bu ishlarni qilmasalar, yuqori ta'sir kuchini qo'lga kiritish ancha qiyinlashadi. Aynan shuning uchun ham insonlarning jamiyatdagi tabaqalanishi mana shunday faktorlar bilan bog'lanishini faylasuf bot-bot takrorlaydi.

Yuqoridagi fikrlarni jamlagan holda erkinlikka erishishni Ibn Xaldun o'ziga xos ravishda tushuntirganini ko'rish mumkin. Demak, mutafakkirning fikriga ko'ra, erkinlikni ko'p hollarda inson jamiyatdagi o'rini orqali qo'lga kiritish imkoni mavjud. Uning boshqa insonlarga ta'sir eta olish kuchiga qarab erkinlik miqdori belgilanadi. Erkin faoliyatni to'la-to'kis ta'minlash uchun jamiyatda eng yuqori mavqega ega bo'lish talab etiladi. Ta'sir doirasi haqida so'z borganda bu nafaqat jamiyatda erkinlikka ega bo'lishni nazarda tutadi, balki boylikka, hokimyatga, farovonlikka, baxtga erishish ham nazarda tutiladi. Bularni hammasi qandaydir ma'noda yana aylanib insonni erkinligini ta'minotchisi sifatida xizmat qiladi. Keng ko'lamdagi erkinlikni faylasuf o'zga bo'ysunuvchilarning erkinligini qisqartirish, chegaralash orqali qo'lga kiritilishi mumkinligini aytib o'tgan. Xulosa o'rnida

erkinlikni mutloq ko‘rinishda jamiyatda uchratishning imkoni yo‘q hamda har bir shaxsning erkinligi boshqa shaxsning erkinligi chegarasida tugashi haqidagi fikrni yana bir bor ta’kidlash imkoni tug‘iladi. Erkin faoliyatning miqdori esa insonning mavqeyi, ta’sir darajasiga qarab o‘lchanadi. Shunday ekan, jamiyatdagi tabaqalangan munosabatlarda erkinlikka hamma bir hajmda va bir vaqtda erisha olmaydi.

Dissertatsiyaning **“Klassik yunon falsafasi va sharq peripatetizmida erkinlik fenomenining transformatsion evolyutsiyasining qiyosiy tahlili”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida Sokrat hamda Ibn Xaldun falsafiy qarashlarida “erkinlik” tushunchasining yaqinlik va tafovvuti, Platon va Farobiyning falsafiy fikrlarida erkinlik atamasidagi vorisiylik, shuningdek, Aristotel hamda Ibn Rushd falsafiy dunyoqarashida erkinlik muammosining javobgarlik bilan birligi kabilar aks etgan.

An’anaviy polis patriotizmi tarafdori sifatida qolgan Sokrat turli xil zamonaviy kosmopolitik oqimlarga nisbatan tanqidiy yondashib, fuqarolarni davlat oldidagi burch va majburiyatlarini his qilib, bajarishni talab etgan. Bu yerda aynan aqlan va adolatli tartibga solingan polis sharoitidagi erkin hamda teng fuqarolarni qonuniy majburiyatlari haqida gap ketgan. Faqat shu yo‘l orqaligina nafaqat inson, balki davlat uchun ham go‘zal va ulug‘ boylik, yutuq sanalgan erkinlikni qo‘lga kiritish mumkin⁶⁹.

Erkin holatda faoliyat yuritish, izohlaydi Sokrat, eng yaxshi holatdagi aqlan ish ko‘rish bilan teng. Bunga esa o‘zini tiya olmaslik katta to‘siq vazifasini o‘taydi. Bu esa insonni tana, jism hirslari va istaklari boshqarayotgani bilan ifodalanadi. O‘zini tiya olmaslik odamlarni ezgulikdan yiroqlashtirib, ularni eng quyi tobelik, qullikka, erksizlikka olib boradi. Shuningdek, u insonni o‘z majburiyatlari hamda butun bir polis hayotining qonuniy tartibi haqidagi g‘amxo‘rligini falaj qiladi⁷⁰.

Inson erkinligi bu jamiyatdagi munosabatlar bilan bo‘liq. Unga ega inson axloqiy jihatdan o‘z mas’uliyatlarini davlat oldida bajarishi lozim. Endi shu o‘rinda Sokratni Ibn Xaldunning erk masalasi bilan bog‘liq bo‘lgan qarashlarini solishtirganda ularning fikrlarini ayrim joylarda o‘xshashligi bilan ajratib olish mumkin. O‘xshash tomonlariga erkinlik inson aqli bilan anglanadigan va faoliyatda namoyon bo‘ladigan fenomen sifatidaligi misol bo‘lsa, Ibn Xaldun jamiyatdagi erkinlik ta’sir doirasi keng va kuchli bo‘lgan insonlarda mavjudligi to‘g‘risidagi fikrlari bilan ajralib turadi. Jamiyatda ta’siri keng bo‘lgan shaxslar ta’sir doirasi kichik yoki umuman yo‘q bo‘lgan insonlarni boshqaradi, ularni o‘z irodasiga bo‘ysundiradi va aynan shu ta’sir doirasi ularni faoliyatlarida erkinlik bilan ta’minlaydi.

Sokrat hamda Ibn Xaldunning qarashlarini komparativistik tahlildan o‘tkaziladigan bo‘lsa, ularda mohiyatan o‘xshashlik, shu bilan birga, ajralib turuvchi o‘ziga xos yonashuv e’tiborga tushadi. Sokrat erkinlik, tenglik tushunchalarini davlatning siyosiy-ijtimoiy sohasida tushuntirgan paytda u insonlarning axloqiy xulq-atvori bilan bog‘lab tushuntiradi. Ibn Xaldun esa bularni tarixiy jarayonda yuz

⁶⁹ Нерсесянц В.С. Сократ. – М.: ИНФРА-М-НОРМА, 1996. – 312 с.

⁷⁰ O‘sha manba.

berayotgan holatlar, o'tish va o'zgarish bosqichlari qonuniyatlarini tahlil qilish orqali yoritishga harakat qiladi. Undagi iqtisodiy ta'sirlar ham e'tibordan chetda qolmaydi. Ibn Xaldun bo'yicha tobelik va erkinlik jamiyatda tabiiy jarayon, ya'ni insonlar o'rtasidagi munosabatlarga tayangan holda paydo bo'lishini nazarda tutadi. Yuqorida Ibn Xaldunning asabiya tushunchasi bilan odamlarning ibtidoiy ko'rinishdan sivilizatsiyaga o'tish jarayonida jamiyat iyerarxiyasi shakllanishini ochib berishga harakat qiladi. Iyerarxiyaning yuqorisida turuvchi rahbarlar pastda turuvchilar ustidan hukumronlikni qo'lga kiritadilar. Ular ushbu boshqaruvda erkin faoliyat olib boradilar. Ularning ustidan nazorat qiluvchilar topilmaydi. Bu esa qadimda ibtidoiy asabiyada qisman tenglik keyingi bosqichlarda sekin-astalik bilan tengsizlikka aylanishini mutafakkir asosli tushuntirib beradi.

Shunday ekan, Sokrat bo'yicha Ibn Xaldunga o'xshab erkinlikning paydo bo'lish yoki yo'qolish kabi sabablari emas, balki erkinlikning jamiyatdagi o'rniga ko'proq e'tibor qaratilgan. Lekin ularni bir-biriga yaqin fikrlar ham uchraydi. Jamiyatda insonlar erkinlikni qonun qoidalarga anglab bo'ysungan holatda qo'lga kiritishlari mumkin. Davlatdagi demokratik munosabatlarda ham shaxslar erkinlikni jamiyatda o'rnatilgan tartiblarni buzmagun holda qo'lga kiritilishi kerakligi kabi xulosa yuzaga keladi. Qanday boshqaruv tizimi bo'lmasin Ibn Xaldun rahbar o'zining yetakchilik faoliyati davomida hukumronga aylanib boradi, ya'ni uning rahbarligi ostidagilarni o'z irodasiga bo'ysindirishga harakati boshlanadi. Shuning uchun jamiyatda ularning ta'sir kuchi hajmi yuqori darajada bo'ladi va ular tobelarga nisbatan erkinlikka ko'proq egalik qiladilar. Egalik tushunchasini u mulk atamasi bilan ham yoritishga harakat qiladi. Mulk aynan hukumronlik bilan birga ifodalanganligi uchun egalik, boshqaruv kabi jarayonlarda hukumdorning qo'l ostida uning to'planishiga sabab sifatida xizmat qiladi.

Platon o'z oldiga jamiyatda yashayotgan insonga erkinlikning zarurligi yoki zaruriyati yo'qligi, insonga uning kerakligi sababi, uni jamiyat hayotidagi ahamiyati kabi masalalarning yechimini berishni maqsad qilib qo'ygan. Bu muammolarni o'rganish jarayonida unda ikki xil dialektik yondashuv shakllangan. Platon erkinlikni pozitiv hamda negativ jihatlarini talqin qilgan. Ijobiy jihatlariga to'xtalar ekan, u shaxs o'zining mohiyatan asl qudratini amalga oshirishga, ijodiy kashfiyotchilikka, shu bilan birga, ma'lum bir oliy maqsadga erishishga erkinlikning yordami beqiyosligini tasniflab o'tadi. Shuningdek, faylasuf erkinlikning salbiy ta'sirini ham ta'kidlashni unutmagan. U o'z kuzatishlari orqali quyidagi xulosalarga kelgan:

- qonun chegarasidan chiqadigan erk polis fuqarolari uchun xavfli hamda unga zarar yetkazishi mumkin;
- inson tabiatiga erkinlikni suiste'mol qilish xosligi tufayli erkinlik ularning qo'lida vayronkor oqibatlariga olib kelishi ehtimoli mavjud;
- erkinlikni inson qo'lga tutqazish to'g'ri yo'l emas;
- erkinlik davlat imtiyozi sifatida qabul qilinsa, maqbul ish bo'ladi.

Bir tomondan, absolyut bo'lmasada erkinlik qalb orqali amalga oshirilishi isbotlansa, boshqa tomondan, "ideal davlat" qurish uchun erkinlikning ortiqchaligi, u jamiyat qulashi ko'rinishidagi salbiy natijalarga olib kelishi mumkin. Erkinlikni

inson hayotidan chiqarib tashlash o‘rinli ekanligi aytiladi. Mutafakkir uchun inson hayotining asosiy maqsadi erkinlikka erishishni tashkil etmaydi. Platonning “Davlat”ida fuqarolarning asosiy vazifasi unga sobitlik bilan xizmat qilish, taraqqiy etishiga hissa qo‘shish sanaladi. Platon jamiyati hayotidan uni ulug‘lamaydigan, unga bo‘lgan sadoqatni so‘ndiradigan, uning ustidan shikoyat ruhidagi she‘rlar yozgan shoirlar quvg‘in qilingan.

Farobiyning fikrlari bilan Platonning ijtimoiy-siyosiy qarashlari solishtirilar ekan, ularning erkinlikka bo‘lgan munosabatlarini yaqqol namoyoni ko‘rinadi. Farobiy Platon kabi o‘zining ideal jamiyatidagi siyosiy tuzilma turlarini besh darajaga bo‘ladi. Mutafakkirning mukammal ya‘ni fozil shahar atamasi Platonning davlatni eng to‘g‘ri boshqaruv tuzilmasi sifatidagi “aristokratiya”ga mos keladi. Qolganlari esa Platon bo‘yicha nomukammal, kamchiliklarga ega va ko‘p muammolarni keltirib chiqaruvchi boshqaruv tuzilmalarini “buzilgan” deb tavsiflangan. Platon bular qatoriga timokratiya, oligarxiya, tiraniya va demokratiya kabi boshqaruv tuzilmalarini qo‘shib o‘tgan. Lekin uning fikricha, ular orasidagi eng yomon va qolgan yomon boshqaruv tuzilmalari ham aynan undan kelib chiqishini ta‘kidlab o‘tgan. Bu demokratiya edi. Farobiyda ham xuddi shunday nuqtayi nazar o‘ziga xos ravishda kuzatiladi. U bu kabi yomon boshqaruvlarni “nomukammal” jamiyatda sodir bo‘lishini aytib o‘tadi. Farobiy o‘z asarining Platondan farqli ravishda ko‘p qismini, ya‘ni risolasining oxirgi sakkiz bobini aynan shu nomukammal jamiyatlar turini ochib berishga bag‘ishlaydi.

Farobiy o‘z zamonasidan kelib chiqqan holda, Platon g‘oyalarini transformatsiyalagan va o‘z zamonasining ruhiga moslaganini ko‘rish mumkin. Demak, Platoni Ideal davlati Farobiyning Fozil shahriga yaqin tasvirlanadi. U ham Platon singari me‘yordan ortiq erkinlikni qoralaydi. Johil shahar odamlari Platonning nomukammal boshqaruv tizimidagi shaharlarida istiqomat qiluvchi fuqarolarga ma‘lum ma‘noda o‘xshaydi. Lekin Platon o‘zini e‘tiborini ideal jamiyatni ochib berishga ko‘proq qaratadi. U aynan mukammal davlat qanday bo‘lishi kerak degan savolga javob berishga harakat qilgan. Fikrlarni bir yerga to‘plagan holda xulosalanadigan bo‘lsa, erkinlikni me‘yordan ko‘payib ketishi aynan jamiyatning parokandaligiga, tartib-qoidalarning yo‘qolib ketishiga, insonlarning fazilatlarini unutilishiga sabab bo‘lib xizmat qiladi.

Bu ikki mutafakkir, ya‘ni Aristotel va Ibn Rushdning qarashlarini komparativistik metod bilan ko‘rib chiqilganida ularni ayrim masalalarda fikrlari mos kelishini kuzatish mumkin. Ha, albatta, Ibn Rushd Aristotelning fikrlari bilan tanish bo‘lgan va uni o‘rganib chiqqan. Ammo unda aynan Aristotelning erkinlik to‘g‘risidagi qarashlariga fikr bildirilganini asarlarida uchratmaymiz. Ularning faqatgina bildirilgan va tanqid etilgan fikrlarni solishtirgan holda nuqtayi nazarlarining farqi yoki o‘xshashligi aniqlanadi. Demak, Ibn Rushd asarlarida o‘z zamondoshlarini asosli argumentlar orqali qattiq tanqid etgan holda, erkinlik haqidagi qarashini shakllantirgan. Ibn Rushd erkinlikni mavjudligi yoxud uning yo‘qligi to‘g‘risidagi ekzistensial masalasiga e‘tibor qaratgan. Lekin erkinlik fenomenini ko‘rib chiqish davomida ulardagi o‘xshashlik namoyon bo‘ladi.

Aristotel erkinlikni o'zi hech qanday tashqi majburlovlarsiz qaror qabul qilish, maqsad qo'yish kabi faoliyatlar bilan erkin shaxsni tavsiflagan. Ibn Rushd, o'z navbatida, inson ishlarini ixtiyoriy ravishda majburiyatsiz bajarishini erkin harakat sifatida baholagan. Aristotelning o'zboshimchalik tushunchasi orqali keltirilgan izohlari aynan Ibn Rushdning qarashlariga yaqin turadi. Ibn Rushd sabab oqibatlar haqida gap boshlaganida yunon faylasufining har qanday ixtiyoriy rejalashtirilgan va bajarilgan ishlar, albatta, oqibatiga mas'uliyat hissini o'ziga olishi haqidagi mulohazalariga mazmunan yaqinlashadi. Aristotel o'zining erkin shaxs faoliyatni amalga oshirishi davomida ezgulikka yetaklovchi buyuk maqsadlarni qo'yish haqida so'z ochadi. Ibn Rushd esa aynan bajarilayotgan barcha qilmishlar buyuk va qodir tangri tomonidan yaratilishini ta'kidlagan holda bandalarining erkin harakatlari hamda tanlovlarini ham ular uchun jo etib bergan. Insonlarning xudo tomonidan berilgan ushbu erkinlikdan foydalangan holda bajargan qilmishlari asosida javobgarlik ham bo'yinlariga qo'yilgan. Ya'ni barcha voqea va hodisalar tangrining irodasi bilan bo'ladi hamda unga asosan hamma qarama-qarshiliklar uyg'unlikda ishlaydi. Bu fikrlari bilan Ibn Rushd dialektik asosda ixtiyor va majburiyat ham, erkinlik va tobelik ham aynan shu garmoniyani keltirib chiqaradi.

Yuqoridagi mulohazalardan bilish mumkinki Ibn Rushd aynan erkinlikni mavjudligi, uning mohiyati va kelib chiqishini xudo bilan bog'lagan. Ammo Aristotel bu masalani xudo orqali yoritmaydi. U faqat erkin amallarni ezgulikka intilish bilan, davlat va jamiyatning qonunlari hamda axloqiy qoidalariga amal qilish bilan ifodalaydi. Albatta, Aristotel atrofni o'rab turgan moddiy muhitdan tashqari bo'lgan boshqa olam mavjudligini va ilohiy kuchni rad etmagan. U shuning uchun ham falsafa tarixida dualist faylasuf sifatida nom qoldirganlar qatorida turadi. Narigi olam haqidagi tasavvurlarni u Platonning g'oyalari orqali shakllantiradi va shu o'rinda uning qarashlarini ham tanqid ostiga oladi.

Demak, Ibn Rushd Aristotel va boshqa antik davr faylasuflarining asarlari bilan tanishib, g'oyalarini o'z zamonasining nafasi bilan yo'g'riltirgan. U Aristoteldan ratsional fikrlash uslubini o'zlashtirgan holatda barcha g'oyalarini mantiqiy argumentlashga harakat qilgan faylasuf sanaladi. Shunday ekan, bu ikki yetuk faylasuflarning g'oyalari bir biriga zid kelmasligini uchratish mumkin. Erkinlik fenomeni haqidagi qarashlar esa bir-birini to'ldiruvchi vazifasini o'taydi.

XULOSA

Ushbu dissertasiya ishi antik davr klassik yunon, shuningdek, sharq peripatetizmi falsafasi, xususan, erkinlik to'g'risidagi o'sha zamon falsafiy ta'limotlarining ilmiy-ijodiy boyligini yanada ko'lamliroq egallash uchun yana bir yondashuvdan iborat. Shu jumladan, uning transformatsiyaga uchraganini aniqlash uchun komparativistikani amalga oshirgan holda, zamonamizga mos qarashlarning ahamiyati ko'rib chiqildi. Ushbu tadqiqot chog'ida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Erkinlik har bir davrda eng bahsli tushunchalar darajasida e'tibor markazidan sira chetga chiqmagan. Ayniqsa, gumanitar bilimlar tadqiqotining predmeti sifatida hozirda ahamiyatli bo'lib kelmoqda. Falsafa sohasining eng ko'zga

